



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 21-yanvar kuni Davos shahrida Tinchlik kengashi nizomini imzolash marosi-mida ishtirok etdi.

✓ O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov hamkasblari bilan birgalikda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan uchrashdi.

✓ Vazirlar Mahkamasi-ning qarori bilan O'zbekistonda 1-fevraldan boshlab, ishlab chiqarilganiga 50 yildan oshgan transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

✓ 24-27-yanvar kunlari Toshkentda Osiyo olimpiya kengashi(OCA)-ning navbatdagi 46-Bosh assambleya yig'ilishi va uning doirasida bir qator sport tadbirlari o'tkaziladi.

AKS SADO



O'ZBEKISTON TONGLARINI BEDOR ASRAYMIZ

Odamzotning insoniy tiynati va ruhiy holatiga xos biror jihat yo'qki, ular hazrat bobomiz Alisher Navoiyning o'lmas asarlarida o'z ifodasini topmagan bo'lsa. Ulug' mutafakkirning fikrlari asrlar o'tsada, o'z ahamiyatini yo'qotmay, aksincha, zamonlar sur'ati tezlashgan sayin yanada teran ma'no kasb etib bormoqda.

Masalan, el aro nihoyatda mashhur bo'lib ketgan "Iyol-u vatan uzra to'joni bor, Kishi harb

etar toki imkoni bor", degan baytini eslaylik. Bu hikmatli so'zlar orqali Navoiy bobomiz insonni faqat o'tmish yodi bilan, mavhum orzu-xayollarga berilib yashamasdan, bugungi kunning o'tkir talab va tahdidlariga mas'uliyat bilan javob berishga, doimo hushyor va amaliy harakatda bo'lishga undaydi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning shu yil 13-yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan

yig'ilishida so'zlagan nutqi mazmuni, nazarimda, avvalo, chuqur anglangan davlatchilik ruhi bilan hamohanglik kasb etdi. Ushbu ma'ruza nafaqat harbiy xavfsizlik masalalari, balki butun mamlakat hayotini, xalq osoyishtaligini ishonchli himoya qilish borasidagi muammolarni keng qamrab olgani va eng ustuvor vazifalarni aniq belgilab bergani bilan ahamiyatlidir.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

EHTIROM

O'zbek va ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi adabiy do'stlik uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu ikki xalq asrlar davomida bir kitobni birga o'qigan, hamisha bir-birini teran anglagan. Aslida, Turkiston jadidlarining ham, ozarbayjon ma'rifatparvarlarining ham yuksak g'oyalari Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi ulug' siymolarning nodir asarlaridan suv ichadi. Chunki Navoiy ijodi milliyatdan oziqlangan va bashariyat merosiga allaqachon aylanib bo'lgan. Ilm-u urfon, adab-u arkon koni bo'lgan bu muhtasham meros hamisha yangi g'oyalarni ilgari surishga undaydi.



Almaz Ulvi BINNATOVA, navoiyshunos olim, O'zbekiston Respublikasining "Do'stlik" ordeni sohibasi

NAVOIY DAN ULGI OLIB...

Ozarbayjonning XVI asrda yashab ijod qilgan mashhur shoiri Ne'matulloh Kishvari ulug' Alisher Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan va g'azallarga naziralar bog'lagan. Ko'pincha turkiy adabiyot deganda, birinchi navbatda Alisher Navoiy siymosini ko'z oldimizga keltiramiz. Holbuki, unga qadar ham bu go'zal tilda ijod qilgan yirik shoirlar anchagina bo'lgan. XIII-XIV asrlarda Yunus Emro, Sayyid Imodiddin Ali Nasimiy kabi mutafakkirlar turkiy she'riyatning ma'naviy-irfoniy asoslarini mustahkamladi. XV asrda esa Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy singari shoirlar turkiy adabiy tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uni yuksak poetik darajaga ko'tardilar. Ana shu boy an'ana negizida Alisher Navoiy turkiy tilni mumtoz adabiyot tili sifatida kamol toptirib, uning imkoniyatlarini

jahon adabiyoti miqyosiga olib chiqdi. Navoiyning ulardan farqi, uning davlat arbobi o'laroq o'zbek tilini to'laqonli rasmiy til darajasiga olib chiqqanidir!

Ma'lumki, 1926-yilda turkologiya ilmi muhim va tarixiy bir voqea sodir bo'ldi – Boku shahrida Birinchi Turkologiya Qurultoyi o'tkazildi. Unda turkiy ellar tillari, adabiyoti, tarixi va madaniyatiga oid masalalar keng muhokama qilindi. Shu yerda lotin alifbosi-ga o'tish, o'rtoq til va adabiy ifoda mezonlari yuzasidan muhim qarorlar qabul qilindi. Qurultoyda 131 nafar olim, tilshunos, tarixchi va adabiyotshunos ishtirok etdi. Bu tadbir turkologiya tarixida muhim bosqich bo'lib, turkiy xalqlar madaniy va ilmiy aloqalarini mustahkamlashda asosiy rol o'ynadi. Tabiiyki, unda Turkiston jadidlari ham ishtirok etgan.

(Davomi 4-sahifada.) ➔

ILM YO'LI

ENG KATTA BOYLIK

O'zFA O.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti direktori, akademik Abbasxon TO'RAYEV bilan suhbat

– “Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik”, deb yozgandi Abdulla Qodiriy. Ushbu muassasa qariyb yarim asr avval tashkil etilgan ekan. Bunga qanday ehtiyoj tug'ilgan edi? Bu dargohga nega aynan Obid Sodiqov nomi berilgan?

– Juda o'rinli savol berdingiz: bugungi yutuqlar, istiqboldagi rejalar kafolatining poydevorini qo'yib berganlarni yod etish, xotirasiga hurmat ko'rsatish biz – shogirdlarning burchimiz.

Bioorganik kimyo instituti O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli bioorganik kimyo bo'limi negizida 1977-yil iyul oyida tashkil etilgan. Institut yaratilishi kimyoda yangi yo'nalish – tirik hujayrada biologik faol modda tuzilishi bilan funksiyasi

orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi bioorganik kimyoning shiddatli rivojlanishi boshlanish vaqti bilan mos kelgan. Organik kimyo, fizik-kimyoviy biologiya va bioorganik kimyo metodlari zamonaviy biotexnologiyaga asos bo'ldi.

Institutning tashkil etilishi va rivojlanishi taniqli kimyogar olim, akademik Obid Sodiqovich Sodiqov nomi bilan bog'liq. Bioorganik kimyo rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlari e'tiborga olinib, 1987-yilda institutga olim nomi berildi.

Obid Sodiqovich O'zbekistonda kimyo fanining tashkilotchilaridan biri edi. Markaziy Osiyo yovvoyi florasini tabiiy birikmalarini o'rganish amaliyotida olimning ulkan hissasi bor. Ustoz kimyo fanida yangi yo'nalish hamda mamlakat va xorijda taniqli

TURIZM

MAQSAD VA IMKONIYAT



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar davomiyli va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab bergan muhim tarixiy hujjat bo'ldi. Ushbu nutq nafaqat o'tgan davr sarhisobi, balki mamlakatimizning 2026-yil va undan keyingi yillardagi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy qiyofasini chizib bergan strategik dasturul-amalidir.

Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyati uchun nafaqat qadimiy lpak yo'lidagi tarixiy manzil, balki yuqori texnologiyali servis va zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan xavfsiz va jozibador turistik markaz sifatida qayta kashf etilmoqda.

Davlatimiz rahbari turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdagi eng katta xazinalardan biri sifatida ko'rsatib o'tdi. Unga ko'ra, endigi vazifa, birinchidan, yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini ko'paytirish, ikkinchidan, har bir kelgan mehmonga yuksak darajada xizmat ko'rsatish, ularning xavfsizligi va mazmunli hordiq chiqarishi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishdir.

(Davomi 3-sahifada.) ➔

VATAN MANZUMASI

O'ZBEKISTON BITTA-YU BITTA

Bu olamda gul ko'p, chaman ko'p,
O'zbekiston bitta-yu bitta.
Atrofda yaxshi ko'p, yomon ko'p,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Daryo ko'rgan, cho'qqi ko'rgan el,
Azal boshi do'ppi ko'rgan el,
O'zi aytzin, ko'pni ko'rgan el,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Tinchlik qadri bilmasslar qancha,
Xudo bilsin, hali ko'p ancha,
Notinch olam aro bir parcha,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Har o'g'lon-u qizin shashti zo'r,
Bolang sendan o'tsa, gashti zo'r,
Mushumzo'rmas, lekin mushiti zo'r,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Dadil qadam otsak bu chog'lar,
G'ashingiz kelmasin, olchoqlar.
Ta'qib qo'yay yo ko'zmunchoqlar,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Bizniki bor tarovati ham,
Sovug'i ham, harorati ham,
Bilib qo'ysin vallomati ham,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Chetdan turib hurish kerakmas,
Chorlasa yuz burish kerakmas,
Allaqayga "surish" kerakmas,
O'zbekiston bitta-yu bitta.

Dil gavharim, yolg'iz durdonam,
G'irrom o'yinlarda mardonam,
Peshonamga bitgan yagonam –
O'zbekiston bitta-yu bitta.

G'ayrat SHERALIYEV

(4-sahifada o'qing.) ➔



O‘ZBEKISTON TONGLARINI BEDOR ASRAYMIZ

Boshlanishi 1-sahifada.

Prezidentimiz ma’ruza avvalida umummilliy xavfsizlik xususida to’xtalib, jumladan, ma’naviy-mafkuraviy muhofaza masalasiga alohida urg’u berar ekan, bundan olti yil avvalgi voqea ko’z oldimga keldi. 2020-yil 12-yanvar kuni Mudofaa vazirligi akademiyasida o’tkazilgan yig’ilishda, yanglishmasam, ilk bor ilm-u ziyo ahli, adib-u shoirlar, tarixchi olimlar ham ishtirok etgan edi. Keyingi yillarda Vatan himoyachilari kuni arafasida Xavfsizlik kengashining yig’ilishlarini mana shunday kengaytirilgan tarzda o’tkazish an’ana tusini oldi.

Prezidentimiz harbiy qudratni yuksaltirish, mamlakat xavfsizligini faqat harbiy tayyorgarlik va eng zamonaviy texnikalarga bog’lab qo’ymay, Qurolli Kuchlarimizning ruhiy-ma’naviy salohiyatini oshirish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini har tomonlama kuchaytirishga alohida urg’u berdi. Hatto ta’lim-tarbiya maskanlari, harbiy qismlarda o’qib-o’rganilishi zarur bo’lgan milliy adabiyotimizning sara namunalari nommanom sanab o’tildi. Bu asarlarni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki butun xalqimiz bilishi muhim ekanligi ta’kidlandi.

Ochig’ini aytganda, bunday aniq adabiy misollar shaxsan men uchun kutilmagan, o’ta ta’sirli holat bo’ldi. Tilga olingan asarlarni beixtiyor birma-bir xotiramdan o’tkaza boshladim. “Nega aynan “Alpomish?” degan savolga javob qidirim va shunday fikrga keldim: “Alpomish” — xalqimizning ming yillik o’tmishi, tarixiy tafakkuri, turmush tarzi, qadriyat va urf-odatlari, eng muhimi, qahramonlik tiynatini o’zida mujassam etgan buyuk epos, folklor san’atimizning betakror durdonasidir.

“Boburnoma” asari esa har qanday mashag’qatlar ichra yuragida Vatan tuyg’usini so’ndirmay yashab o’tgan mard va matonatli ajdodlarimizga ruhiy yaqinlik, ona zaminga sadoqat hislarini yolg’inlantiradi. “O’tkan kunlar” romani xalqimizning noyob ma’naviy bisoti sifatida millionlab qalbarga pokiza insoniy tuyg’ular, vatanparvarlik, elsevarlik, fidoyilik tuyg’ularini singdirib keltmoqda. Abdulhamid Cho’lponning “Xalq”, Erkin Vohidovning



“O’zbekim”, Abdulla Oripovning “O’zbekiston” she’rlari el-yurtimizning norasmiy madhiyasiga aylanib ketgani, Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, ayni “adolatli haqiqatdir”.

Prezident tilidan alohida ta’kidlab o’tilgan, nomma-nom zikr etilgan ushbu badiiy namunalar, avvalo, minglab yillar davomida O’zbekiston zaminida yashab kelayotgan xalq va elatlarning ruhiy olamini, asrlar osha shakllangan hayot tarzi va turmush falsafasini o’zida tiniq va yaxlit mujassam etgan o’lmas asarlardir. Ularda aks etgan barcha fikr, falsafa va tarixiy manzaralar bir butunlikda Vatan, ya’ni O’zbekiston tuyg’usini alangalatadi. Ana shu tuyg’u olovidan quvvat olgan xalq sira ikkilanmay, ardoqli shoirimiz Muhammad Yusufning: “Hech kimga bermaymiz seni, O’zbekiston!” — degan o’tli na’rasiga jo’r bo’ladi. O’z yurti uchun g’urur-iftixorga to’lib, hech qanday tahdid, olov-otash oldida sarosimaga tushmaydi.

Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilar, shuningdek, barcha yoshlarimiz, xalqimizning katta-

yu kichigini ogoh va sezgir bo’lib yashashga, buning uchun esa chuqur mushohada yuritishga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo’lishga da’vat etmoqda. Bu asarlar adabiyot va san’at, ta’lim-tarbiya sohalarini uchun amaliy dastur, vatanparvarlik g’oyasi uchun konseptual asos vazifasini o’tashi, shubhasiz.

Yig’ilishda boshqa ko’pgina muhim masalalar qatorida jamiyatimizda mutolaa madaniyatini oshirish, kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, 1 million nusxada kitob chop etib, respublikadagi kutubxona va qiroatxonalarga, eng avvalo, barcha harbiy qismlarga bepul tarqatish vazifasi ijodiy va ilmiy tashkilotlar mutasaddilariga yuklatildi. Mamlakatimizda bir necha yildan beri an’anaga aylangan kitobxonlik musobaqalari amaliyotini harbiy qismlarda ham joriy etish, g’olib harbiylarni moddiy va ma’naviy rag’batlantirish tashabbusi e’lon qilindi. Bu taklif yig’ilish ishtirokchilari tomonidan qizg’in kutib olindi.

Xavfsizlik kengashining navbatdagi kengaytirilgan yig’ilishi mamlakatning harbiy salohiyati, armiyani eng zamonaviy harbiy texnika bilan muntazam modernizatsiya qilish, harbiy-ma’muriy okruglarda amalga oshirilayotgan ishlar, harbiy xizmatchilarning moddiy ta’minoti, yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash kabi qator dolzarb masalalarni qamrab oldi. Soha mutasaddilarining hisobot va takliflari atroficha tinglandi. Hech bir yo’nalish e’tibordan chetda qolmadi.

Prezidentimiz harbiy sohaning poydevori ham zamonaviy bilim va ilg’or tajribalarga tayanishi shartligini qayta-qayta ta’kidladi. Axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt yo’nalishlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog’liq vazifalar chuqur tahlil qilindi.

Xalqaro vaziyat tobora murakkablashib, tahlikali tus olayotgan, kutilmagan voqealar sodir bo’layotgan bugungi sharoitda davlat suvereniteti, milliy istiqlolni saqlash va mustahkamlash eng muhim vazifamiz, millati,

tili va dinidan qat’i nazar, har bir O’zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi yana bir bor ta’kidlandi. Pirovardida, Prezidentimiz: “Biz endi har qachongidan ham ko’ra birdam va jips bo’lishimiz kerak”, degan fikrni olg’a surdi.

Darhaqiqat, bugungi qaltis va murakkab davr butun xalqimizdan, birinchi navbatda, ziyolilarimizdan yakdil va hamjihat bo’lishni talab qilmoqda. Afsuski, hozirgi vaqtda ayrim ziyolilarimiz tariximizda o’tgan ulug’ adib va arboblarmizga nisbatan nohaq, biryozlama fikr bildirib, jamoatchilik o’rtasida turli tushunmovchilik, nizo va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgani g’oyat achinarli holdir. Jamiyatning sog’lom fikrli namoyandalari bunga yo’l qo’ymaslik uchun faol kurashishlari zarur.

Qadim ajdodlarimiz, donishmand otalarimiz: “Bo’ladigan el bir-birini botirim der, bo’lmaydigan el bir-birining etini yer”, deya bejiz o’git aytmagan. Bugun milliy birlik, millatlar va dinlar o’rtasidagi hamjihatlikni ta’minlash — eng muhim masaladir.

Davlatimiz rahbarining yakuniy so’zlari har bir ishtirokchi qalbidagina ishonch va qat’iyatni yanada mustahkamladi: “O’rtga yo’l yo’q. O’z hayotimiz, kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. Yangi O’zbekistonni, qanchalik qiyin bo’lmasin, barchamiz birgalikda barpo etamiz. Tinchligimizni, totuvligimizni saqlasak, ulug’vor maralarga albatta yetamiz!”

Prezidentimizning har bir o’zbekistonlik taqdiri uchun mas’ul va jonfido inson sifatida aytgan bunday teran fikrlari hech kimni befarq qoldirmadi. Beixtiyor xayolimga jo’mard o’zbek shoiri Mirtemirning mustabid tuzum davrida bitgan “O’zbekiston tonglarini bedor kutgan ko’zlarim” degan armonli, dardli misrasi keldi. Hassos shoirimiz ming-minglab ota-bobolarimiz singari yurtimiz tonglarini — milliy mustaqilligimizni mana shunday armon va intizorlik bilan kutgan edi. Biz — bugungi avlod shu ulug’ ne’matning munosib egalari sifatida O’zbekistonimizning beg’ubor tonglari, musaffo osmonini ko’z qorachig’idek asrashga har tomonlama mas’ul va javobgarmiz.

Shuhrat RIZAYEV,
adabiyotshunos

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

— Elmira Abdumannopovna, mahalla — katta bir oila ekanini bilamiz. Hamma oilalarda bo’lgani kabi bu “ro’zg’or”ning ham o’ziga yarasha past-balandi, yutuq-muammolari bo’lishi tabiiy. Shu ma’noda, katta hovlining bekasi bo’lish qiyin emasmi?

— Juda chiroyli o’xshatish qildingiz. Men 16 yildan buyon mahalla tizimida ishlayman. O’tgan vaqt mobaynida baland-pastlarni qarichlab o’rgandim. 2025-yil may oyida “Orzu” mahallasi raisligiga saylandim. Ochig’ini aytaman, ovoz berish natijasi mening foydanga bo’lishini kutmagandim. Mahalladoshlarim ishonchidan ko’nglim ko’tarilgan bo’lsa-da, yuragimda biroz xavotir, hadik paydo bo’ldi. Lekin oilamning, hamkasblarimning daldasi bilan o’zim ko’rgan-bilgan joyda tezda ishga kirishib ketdim.

Xodim bo’lib yurgan yillarimda ba’zi-larning ayol rahbarlarga istehzo bilan nopisand qarashini ko’rib, ko’nglim cho’kkan paytlar bo’lgan. Lekin o’zim rais bo’lgach, bildimki, odamlarimizning dunyoqarashi o’zgaribdi, xotin-qizlarning yutuqlaridan quvonadigan, ularni qo’llab-quvvatlaydigan jamiyatga aylanibmiz. Bu bejiz emas, mas’ul vazifalarda faoliyat yuritayotgan ayollar, oliy ma’lumotlilar safini kengaytirayotgan qizlarimiz odamlar ongidagi eskilik qoliplarini parchalab, muzlarni eritmoqda.

Aytaylik, Olmazor tumanida 64 ta mahalla bo’lsa, rais sifatida 10 nafar ayol ish olib boradi. Ish va oilani barobar ushlar ham muhim bu o’rinda. Chunki mahallaga rahbarlik qiladigan, odamlarni birlashtiradigan, yaxshi-yomon kunida yonida turadigan odamning o’zi uy-ro’zg’orini sarishta qilib qo’yg’an bo’lishi kerak. Oila tarozining bir pallasida tursa, katta oila — mahallamni tarozining ikkinchi pallasiga qo’yaman. Ikkalasini barobar tutishga harakat qilaman. Oilam ko’magida zimmamdagi mas’uliyatli vazifani imkon qadar uddalab kelayman.

Muhimi, bugungi kunda tumandagi namunali mahallalardan birimiz. Albatta, guruch kurnaksiz bo’lmaganidek, mahalla ahli orasida, ish jarayonida turli holatlar yuz berib turadi. Lekin, umuman olganda, mahallamiz tinch.

— **Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy ongini oshirish, haq-huquqi va majburiyatlarini tushuntirish borasidagi ishlar haqida so’zlab bersangiz. Muhim qarorlar ijrosini ta’minlashda mahallaning o’rni qanday?**



— Ma’lumki, har bir mahalla tizimida rais boshchiligidagi yettilik mavjud. Bu yettilik davlatimiz rahbari hamda hukumat tomonidan chiqarilgan hujjatlar mohiyatini aholiga o’z vaqtida yetkazishni zimmasiga olgan. Shuningdek, mahalla qo’mitasi qoshida Oqila ayollar kengashi, Ayollar maslahat markazi faoliyat yuritadi. Ular har oyda yig’ilib, olib borilayotgan ishlar natijasi, navbatdagi muhim vazifalar haqida maslahatlashib oladi. Aytaylik, bir safar nuroniylar yig’ilsa, kelasi safar yoshlar bilan suhbat tashkil etiladi. Zarurat tug’ilsa, ba’zi masalalar bo’yicha chetdan mutaxassislar taklif qilinadi. Mahallamiz faollari orasida nafaqada bo’lgan huquqshunos ayol bor. Bundan tashqari, bizga hamkor tashkilot hisoblangan Milliy gvardiyadan ham huquqshunos mutaxassislar har juma kuni mahallamizga kelib, aholidan kelib tushgan murojaatlarga yechim topishda yordam beradi. Bilasizmi, shu kuni kamida 10-15 odam huquqiy yordam olib, o’z muammosini hal etish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Prezidentimizning o’tgan yil yakunida Oliy Majlisga o’z O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mahallamiz fuqarolariga shu voqealarning ertasigayoc keng miqyosda yetkazildi. Yig’ilishda mahalla

uchun muhim yangilik — 2026-yilga “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nom berilgani va uning mazmun-mohiyati, mahallani rivojlantirish masalasi jamiyatni yuksaltirish bilan bog’liq ekani chuqur tahlillarda ochib berildi.

“Mahalla tinch va ahil bo’lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo’ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi”.

“Murojaatnoma”dan

Shu yig’ilishda qatnashganim uchun bir holatni mamnuniyat bilan aytib o’tmoqchiman. Gap shundaki, yil nomi e’lon qilinayotganida ko’pchilik birdan qarsak chalib yubordi. Shunda Prezidentimiz yig’ilganlarga qarab: “Mana, yig’ilishimizda ko’plab mahalla raislari ishtirok etayotgan ekan”, deya ta’kidladi. Mahallani rivojlantirish uchun, avvalo, infratuzilmani rivojlantirish kerakligi alohida ta’kidlandi. Yana ham muhimi, kambag’allikni qisqartirish masalasi. Bular shunchaki gap emas, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning amaldagi ifodasidir.

— **Mahalla rahbari sifatida har bir xonadon holidan xabardorsiz, albatta. Bugun ijtimoiy himoya borasida islohotlar ko’lami kengayib bormoqda. Ayni masala mahallada qanday sado bermoqda?**

— Aytaylik, har bir xonadon ostonasidan hatlashingiz bilan oilaning yashash sharoiti haqida tasavvur hosil qilasiz. Gap-so’z ham shunga yarasha. Ba’zi oilalar o’ziga to’q bo’lsa ham, davlatdan nimadir undirib qolmoqchi bo’ladi. Deylik, bir boyvachchaning daromadi, mol-mulki elektron manbalarga atay kiritilmagan. Lekin mahallani aldab bo’lmaydi-ku! Yana shunday oilalar borki, dardini aytishga, ko’mak so’rab mahalla idorasiga chiqishga tortinadi, andisha qiladi. Ularni albatta, xonadonbay ishlab, aniqlash zarur.

Biz ko’makka muhtoj oilalarni imkon qadar har tomonlama qo’llab-quvvatlaymiz. Bu borada Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo’limlari bilan birga, saxovatini yurtdoshlarimiz, muhtojlarga yordam qo’lini cho’zishga tayyor korxonalar ko’magidan ham foydalanamiz. Ayni paytda mahallamizda to’qqizta kambag’al oila bo’lsa, tuman hokimining yordamchisi bilan birgalikda bu oilalarni kambag’allikdan olib chiqish uchun qanday yordam berish borasida reja tuzib oldik. Ana shu reja asosida ish boshlaganmiz.

To’rt yarim mingdan ortiq aholining javobgarligi bor bugun zimmamda. Ayniqsa, xotin-qizlarga e’tibor masalasi javobgarligimdagi asosiy masala, deb o’ylayman. Ilgari ham xotin-qizlar bilan ko’p ishlaganmiz. Ularning muammolari qanchalar ko’pligi va bu muammolarga tezroq yechim topish zarurati ish jarayonida asosiy e’tiborimda turadi. Chunki ayol tinch-xotirjam, oilasi farovon, kelajagidan ko’ngli to’q bo’lsa, farzandlar ham baxtiyor yashaydi. Ayni paytda yoshlar masalasi ham bugun dolzarb vazifalardan biri bo’lib turibdi.

— **Mahalla faollari ishlarida ochiqchilik, oshkoralik, javobgar-**

lik degan tushunchalarga amal qilish qay darajada ta’minlangan?

— Mahallamizda o’n besh kishidan iborat Faollar kengashi ish olib boradi. Kengashda mahallamizda o’tadigan tadbirlar, tashkiliy ishlar muhokama qilinib, tegishli yo’l-yo’riq, yo’nalish berilgach, amaliy ishga o’tiladi.

“Baxtli oilalar hammasi bir-biriga o’xshash bo’ladi. Baxtsiz oilalar esa har biri o’zicha baxtsiz”.

Lev TOLSTOY

Mazkur kengash yig’ilishida yopiq ishlar ham ko’rib chiqiladi. Bunga oilaviy mojarolarni misol qilib keltirish mumkin. Bu kabi yig’ilishlarda shunday savol-javoblar o’rtaga chiqadiki, bunda oilaviy sirlarni ko’pchilikning og’ziga tushishdan saqlab qolish zarurati tug’iladi. Ya’ni, qash bo’ylaman deb ko’z chiqarmaslik, oila a’zolarining keyingi hayotiga maishiy gap-so’zlar ta’sir qilmasligi kerak. Muammolar bir-biriga o’xshamaydi. Shuning uchun yolg’iz raisning o’zi ularga yechim bera olmaydi. Ko’pni ko’rgan nuroniylar, ilmi mutaxassislar bu ishga jalb qilinadi. Bir oilaning notinchligi yetti qo’shniga ta’sir qiladi. Tasavvur qilung, bir ko’chada hamma uyilar oldi gulzor-u, bittasini xazon, chiqindi uyumi... Ana shu joy butun hudud obodligiga dog’ tushiradi.

— **Rostini aytganda, oiladagi muammolarning aksari moddiy masalalardan kelib chiqadi: birovi to’qqichlikdan, birovi yo’qchilikdan...**

— ...va bekorchilik, qanoatsizlikdan ham. Uyda o’tirib, hunar o’rganmasa, ilm olmasa, o’z ustida ishlamasa, xayolga nimalar kelmaydi, deysiz? Erkaklarimiz ro’zg’or butligi uchun astoydil harakat qilmoqda. Lekin xotin-qizlar ham oila farovonligi uchun qarab turmasligi kerak.

Masalan, ayni paytda mahallamizda xotin-qizlar uchun ish o’rinlari tashkil qilish maqsadida tikuvchilik, shuningdek,

ishsiz aholini ish bilan ta’minlash maqsadida qandolat korxonasi ochishga kirishganmiz. Chunki aksariyat ayollarning turmush o’rtog’lari farzandlari qarovsiz qolib ketishini xohlamaydi. Shuni nazarda tutib, mahallaning o’zida yangi ish o’rinlari yaratishni maqsad qilganmiz. Ko’rib turganingizdek, maqsadimizni ro’yobga chiqarish yo’lidagi xayrli ishlar boshlangan. Jamoatchilik bilan birgalikda hali ko’p ishlarni amalga oshirishni niyat qilganmiz. “Yolg’iz otning changi chiqmas”, deyilar-ku. Bu borada mahalla yettilligining hamjihatligi muhim o’rin tutadi.

— **Mahallaning kutubxonalari haqida gaplashingiz...**

— Bizda bir emas, uchta kutubxona bor. Biri mahalla idorasida, ikkitasi ko’p qavatli uylarning orasida joylashgan. Har bir kutubxonada yoshlar uchun ham, katta yoshdagi mahalladoshlar uchun ham kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar mavjud. Muhimi, bu maskanlar hamisha gavjum.

“Mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo’lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida maktab kutubxonalari har yili 10 million dona badiiy adabiyotlar bilan ta’minlab boramiz”.

“Murojaatnoma”dan

Yonimizda joylashgan Renessans universitetida maktab o’quvchilari va talabalar uchun 12 turdan ortiq to’garak ishlab turibdi. Ularning ichida eng katta robototexnika to’garagi bo’lib, juda ko’pchilik yoshlar shu yerda shug’ullanadi. Shuningdek, yaqinimizda joylashgan 243-maktab bilan muntazam aloqadamiz. Yoshlar yetakchimiz tomonidan faqat qizlarni emas, o’g’il bolalarni ham oilaga har tomonlama tayyorlash borasida tadbirlar ishlab chiqilgan. Milliy gvardiyaning psixologi har oyda bir marta kelib, o’smir yigitlar bilan suhbat o’tkazadi. Maktab maktab bitiruvchilaridan 14 nafari o’tgan yili oliy o’quv yurtlariga davlat granti asosida o’qishga kirdi. Bu, albatta, mahallamiz uchun faxr.

— **Mahallaga kelishimiz bilan bu yerning fayzli, diltortar go’sha ekaniga amin bo’ldik. Obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish, ayniqsa, qadriyatlarimizni tarbiyalashdagi ishlarigizga rivoj bersin! Samimiy suhbat uchun rahmat!**

Suhbatdosh:
Gulchehra UMAROVA



MAQSAD VA IMKONIYAT

“Keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra – 11 million nafardan 20 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha ulkan maqsadlar belgilandi”.

Shavkat MIRZIYOYEV

Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbekiston zamini asrlar davomida islom ilm-fani va madaniyatining beshigi bo'lib kelgan. Bizning boy tariximiz va ajdodlarimiz qoldirgan meros bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi eng katta strategik resurslardan biridir.

Toshkent shahrida barpo etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini belgilovchi global ahamiyatga molik muassasadir. Bu markaz ma'naviyat va ilm poydevori bo'lib xizmat qiladi. Undagi elektron arxivlar va raqamlashtirilgan nodir qo'lyozmalar xorijlik sayyohlarga Movarounnahrning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasini jonli tarzda ko'rish imkonini beradi. Endigi asosiy vazifa bu boylikni jahonga namoyish etish orqali milliy manfaatlarimizni ta'minlashdir.

Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati aynan shu maqsadga – ilm va tajribani zamonaviy turizm industriyasi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu maskan nafaqat ziyoratchilar uchun ma'naviy quvvat manbai, balki tadqiqotchilar uchun noyob ilmiy xazina va turistlar uchun betakror madaniy obyekt sifatida O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasining qayta tiklanishi ziyorat turizmida sifat jihatidan yangi davrni boshlab berdi. Majmua tarkibidagi Innovatsion muzey tarixni zamonaviy texnologiyalar orqali namoyish etishning yangi andozasiga aylandi.

Samarqand unda qo'nim topgan Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy singari buyuk insonlari bilan haqli ravishda faxrlana oladi. Birgina “Chokardiza”ning o'zi o'nlab buyuk allomalar uchun makon bo'lgan. Yana bir muhim jihat, bu shahardagi obidalar va ulug' shaxslar emas, balki uning islom rivojiga benazir hissa qo'shgan hamda o'zga yurtlarda qolib ketgan sodiq farzandlari ham xorijiy sayyohlarni jalb qilib keladi.

Masalan, Imom Mavlono Malik Ibrohim Samarqandiy XV asrda Indoneziyada asos solgan Vali sango (to'qqiz avliyo) jamiyati hali-hanuz indoneziya xalqi tomonidan e'tirof etiladi va ularni Samarqandga ohanrabodek tortib turadi. Bugun Indoneziyada Imom Buxoriy har bir xonadonga, ijtimoiy hayotining har bir sohasiga kirib borgan, yosh avlodni tarbiyalashda asli samarqandlik Valiy sango ibrat namunasi o'laroq ko'rsatiladi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, endigi vazifa – har bir hududning o'ziga xos “tashrif qog'ozini” yaratishdir. Imom Buxoriy majmuasi nafaqat ziyorat maskani, balki buyuk allomaning “Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay” degan



shiorini dunyoga tanituvchi yirik ilmiy-ma'rifiy markazga aylantirildi. Bu yerda qo'llanilgan VR texnologiyalari va interaktiv displeylar sayyohlarga tarixni jonli tarzda his qilish imkonini beradi. Ziyorat turizmining rivojlanishi ma'naviy, iqtisodiy jihatdan ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Murojaatnomada Samarqand shahrining turistik jozibadorligini oshirish uchun shahardagi tarqoq holda joylashgan tarixiy obidalar – Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi va Afrosiyob muzeyini yaxlit bir makonga aylantirish g'oyasi ilgari surildi. Buning uchun zamonaviy yo'laklar, yer usti ko'priklari va yashil zonalaridan iborat “Madaniy ko'priklar” tizimi barpo etiladi. Xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunday “integratsiyalashgan madaniy hudud” konsepsiyasi Italiyaning Rim shahridagi “Fori Imperiali” yoki Gretsiyaning Afina shahridagi arxeologik bog'larini birlashtirish loyihalarida muvaffaqiyatli qo'llangan. Natijada sayyohlarning piyoda yurish masofasi va shaharda qolish vaqti 30-40 foizga ortgan.

Murojaatnomadagi eng hayajonli yangiliklardan biri Xivadagi Ichanqal'a majmuasini dunyoda kam kuzatiladigan “aqli” va immersiv muzey-shaharga aylantirish tashabbusi. Immersiv turizm sayyohning tomoshabin emas, tarixiy jarayon ishtirokchisiga aylanishidir. Xivada raqamli texnologiyalar, tovush va nur effektlari yordamida o'rta asrlar muhiti qayta tiklanadi. Bu borada Fransiyaning “Puy du Fou” tarixiy parki tajribasini misol keltirish mumkin. U yerda tarix jonli sahna va texnologik effektlar orqali ko'rsatiladi, bu esa yiliga millionlab sayyohlarni jalb qiladi.

Xivada ham “jonli tarix” konsepsiyasining joriy etilishi, Ichanqal'ani nafaqat obidalar to'plami, balki vaqt mashinasi kabi ishlaydigan noyob makonga aylantiradi. Har bir hududning o'ziga xos “tashrif qog'ozini” yaratish strategiyasi doirasida Xiva O'zbekistonning “raqamli o'rta asrlar” markazi bo'lib qoladi.

Yurtimizning tabiiy iqlimi faqat bahor va kuzda emas, yilning barcha fasllarida turizmdan daromad olish imkonini beradi. Murojaatnomada Shahrisabzdagi “G'elon” turistik majmuasi va Namangan viloyati Pop tumanidagi “Arashan” tog'dam olish zonasini rivojlantirishga alohida to'xtalib o'tildi. Bu maskanlarning o'ziga xosligi baland tog' tizmalari, shifobaxsh suvlar va noyob ekotizimdir. Xorijiy tajribada Shveysariyaning Alp tog'laridagi kichik qishloqlar (masalan, Zermatt yoki Grindelvald) brendi aynan mahalliy aholining mehmondo'stligi va tog' infratuzilmasining uyg'unligi asosida yaratilgan. “G'elon” qishlog'ida ham mahalliy aholi

xonadonlarini “mehmon uylari”ga aylantirish va tog' chang'isi, alpinizm yo'nalishlarini rivojlantirish orqali Shveysariya modelini tatbiq etish mumkin.

Infratuzilmaviy yangilanishlarning muvaffaqiyati transport tizimining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Aviatsiya va temir yo'l qatnovini keskin ko'paytirish, Samarqand, Xiva va Buxoro o'rtaasidagi transport aloqalarini yaxshilash orqali O'zbekiston mintaqaviy turistik xabga aylanmoqda. Xorijiy davlatlar, xususan, Turkiya va BAA tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizmda muvaffaqiyatga erishish uchun davlat kommunikatsiya va energiya tizimini yaratadi, xususiy sektor esa servis infratuzilmasini barpo etadi. O'zbekistonda ham yaqin istiqbolga mo'ljallangan strategiya aynan shunday davlat va xususiy sheriklik asosiga qurilgan. Bunday tizimli yondashuv natijasida turizm xizmatlari eksportini 20 milliard dollarga yetkazish uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Prezidentimiz aynan mana shu strategiyaning amaliy ifodasi sifatida sohaga xususiy kapitalni jalb qilish bo'yicha bir qator “inqilobiy qadamlar”ni e'lon qildi. Bu tashabbuslar sohani iqtisodiyotning chinakam lokomotiviga aylantirish bilan birga, tadbirkorlik subyektlari uchun misli ko'rmagan imkoniyatlar eshigini ochadi. Turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish yo'lidagi eng katta to'siqlardan biri loyihalar uchun yer ajratish va zarur infratuzilmani yetkazib berish masalasi edi. Bugungi strategik islohotlar doirasida ushbu muammo tizimli yechim topildi: kelgusi uch yilda turizm maskanlarini barpo etish uchun 5 ming gektar yer maydoni ochiq auktsion savdolariga chiqariladi. Bu shunchaki raqam emas, balki yuzlab yangi mehmonxona, zamonaviy dam olish maskanlari, kemping va innovatsion eko-kurortlar uchun ochilgan misli ko'rmagan imkoniyatdir.

Belgilangan maqsadlarga ko'ra, 2026-yilda tadbirkorlar tomonidan jami 4 milliard dollarlik 3,5 mingdan ziyod servis objekti ishga tushirishi rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkich turizm nafaqat davlatning ustuvor yo'nalishi, balki xususiy sektor uchun ham eng istiqbolli va sdaromadli sohaga aylanganining yaqqol isbotidir.

Birlik va hamijihatlik bilan amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamlil yangilanishlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishi va milliy iqtisodiyotimizning barqaror gullab-yashnashini ta'minlashi shubhasiz.

Olim ASTANAQULOV,
O'zbekiston xalqaro
islomshunoslik akademiyasi
professori



SHUKRONA

Yarim asr ilgari bir “kuf-suf” bilan “ochil dasturxon”da qish oylarida yangi uzilgan meva-sabzavotlar paydo bo'lishini ertaklarda o'qirdik. Hatto chorak asr ilgari ham qish oylarida bozor peshtaxtalarida meva-chevalar narxi osmonga sapchir – bir kilo olmaning puliga shu miqdor go'sht xarid qilish mumkin edi. Eslaymiz, o'sha yillari qaysidir Sharq mamlakatidan keltirilgan, har biriga alohida tamg'a taqilgan olmalar ko'zlarimizni quvontirgan, beixtiyor cho'ntagimizni kovlab... so'ng bosh chayqagancha boshqa peshtaxta yoniga ketishga majbur bo'lganmiz.



FASLLARNING FARQI QOLMADI



1994-yil apreli adog'ida Fransiya Prezidenti Fransua Mitteran qadim Xivani ziyorat qilish uchun rasmiy tashrif bilan kelganida, viloyatdagi mas'ullar mehmon oldiga vohaning o'ziga xos mevalari, poliz mahsulotlarini topish, topganda ham go'yo yangi uzilgandek tasavvur uyg'otishi bo'yicha berilgan topshiriqni qanday bajarish ustida rosa bosh qotirganlari ham haqiqat...

Qish oylari keskin iqlim o'zgarishiga ega Xorazmda yirik issiqxonalar tashkil qilishga kirishilganiga hali o'n yil bo'lgani yo'q. Davlat qo'llab-quvvatlovi, banklardan imtiyozli kreditlar ajratilgani, barcha infratuzilmalar yaratilgani ortidan o'tgan davrda vohada ming gektardan ortiq yirik issiqxonalar qurildi va mahsulotlarini aholi dasturxoniga yetkazib berish, ortiqchasini chetga eksport qilish oddiy voqeaga aylandi. Bundan tashqari, paxta yakkahokimligiga chek qo'yilishi natijasida, vohada bog'dorchilik, poliz-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni deyarli uch baravar oshdi. Hali biz aholi tomorqalaridagi kichik hajmli issiqxonalar haqida aytmayapmiz. Bugun viloyatda qishloq aholisining qo'lida o'n besh mingdan ortiq kichik issiqxonalar mavjud, ayrim issiqxona egalari yil davomida ikki-uch sotix hajmdagi issiqxonasidan mavsumda 60-80 million so'm atrofida daromad topmoqda.

Tarmoqni isloh qilishda meva-sabzavot yetishtirishgina emas, ularni aholi dasturxoniga yil davomida uzluksiz va sifatli yetkazib berish tizimini yaratishga katta ahamiyat qaratildi. Shu maqsadda barcha tumanlarda katta-kichik sig'imli sovutgichli omborlar qisqa fursatlarda barpo etilgani sababli, bugun qahraton qish oylarida ham bozor peshtaxtalari turli mahsulotlarga to'la. Shu bilan birga, mahsulot ko'pligidan ularning narxi qish oylarida ham mo'tadil saqlanmoqda. Pishiqchilik davrida yangi uzilgan mevani qanday narxda xarid qilgan bo'lsangiz, bugun ham shu narx deyarli o'zgarishsiz turibdi.

“Oziq-ovqat xavfsizligi” atamasi turmushimizga kirib kelganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi, ammo qisqa fursatda bu borada davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalar to'liq amaliyotga aylanib ulgurdi. Ayni paytda, sohada islohotlar poyoniga yetgani yo'q – erishilgan marralar joyida to'xtab qolmagan, yangi yutuqlar sari ilgirilash davom etmoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida quyidagi raqamlar keltirildi: “Yangi yilda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun 52 trillion so'm ajratamiz. Oziq-ovqat mahsulotlarini xalqimizga barqaror narxda yetkazib berish ham to'liq isloh qilinadi. Bozorlarimizni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil – o'n ikki oy barqaror narxda ta'minlash uchun 2026-yilda doimiy intervensiya tizimiga o'tamiz. Hududlardagi “Oziq-ovqat jamg'armalari”ga ajratiladigan resursni 2,5 barobar ko'paytirib, 500 milliard so'mga yetkazamiz. Shuningdek, meva-sabzavotga ixtisoslashgan 1 mingta mahallada sig'imli 100 tonnagacha bo'lgan kichik

sovutgichli omborlar barpo etiladi. Bu ishlarimiz kelgusi yil inflyatsiya darajasini 6–6,5 foizga tushirishga xizmat qiladi”.

Yaqin-yaqinlargacha meva-sabzavotni qishga asrash qadimgi usullarda amalga oshirilardi. Xonadonlar sabzi, turpni o'raga ko'mib, mevalarni yog'och qutilarda har donasini alohida qog'ozga o'rab, piyoz yoki kartoshkani bir xil haroratli xonalarda saqlardi. Bu usulda saqlangan meva va sabzavotlar oilaning o'zidan ortmas, ortig'i bozorga chiqarilganda, narxi osmonda bo'lardi. Buning ustiga voha sharoitida yerosti suvlari yuqori joylashganidan, sabzi yoki turp martning boshidayoq qazib olinar va u yog'iga yangi sabzi pishib yetilguncha, palov eng tansiq taomga aylanardi. Bahorda shamollash xastaliklari ko'p tarqalgan kezlarda shifokorlar meva-sabzavotni ko'proq iste'mol qilishni tavsiya qilishar, bemorning yaqinlari topganini cho'ntagiga solib, bozorma-bozor “yaxshiroq saqlangan, ta'mi og'izga yoqadigan” meva izlab sarson yurardi.

Kichik va katta hajmli sovutgichli omborlar barpo qilinishi ortidan ushbu muammoga yechim topildi-qo'ldi. Bunday omborlarda mahsulotlar yoz oylarigacha sifatli, go'yo bandidan kecha uzilganday saqlanmoqda. Bu esa nafaqat ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, balki oddiy fuqarolar ham o'z bog'lari, tomorqalarida yetishtirilgan hosilning ortiqchasini ushbu omborlarga kelishilgan shartnoma asosida topshirish amaliyotini boshlab berdi. Aytaylik, tomorqasi yoki qo'shimcha tomorqasida bir necha tonna sabzi yoki piyoz yetishtirgan dehqon uni omborxonaga topshiradi va istagan vaqti olib bozorga chiqaradi, yaxshi daromad topadi.

Bozor peshtaxtalari deyapmiz. Aslida, hozir yilning istalgan faslida mahsulot xarid qilish uchun vaqt ketkazib bozorga borish ham shart bo'lmay qoldi. Sababi, omborlarda saqlanayotgan meva-sabzavotlar “yetkazib berish” xizmati orqali qishloqlardagi do'konlarga peshma-pesh eltib berilyapti. Yaqingacha qish yoki bahorda tansiq meva izlab bozorga borgan bo'lsangiz, bugun o'sha meva-yu sabzavot “o'z oyog'i bilan” uyingizga kirib kelyapti.

Bizga qo'shni Dehqonobod qishlog'idagi beshta mahalla ahli uzum yetishtirishga ixtisoslashgan. Har yili mavsumda o'rtacha yigirma ming tonnadan ziyod uzum hosili olinadi. Uning bir qismi eksport qilinisa, bir qismi omborlarga topshiriladi.

Tanishim auktsion orqali o'ttiz sotix yer sotib olib, dehqonchilikka kirishdi. Birinchi hosil sifatida bug'doy, bug'doydan bo'shagan maydonlarga kechki sabzi ekdi. Uch oyda topgan daromadi haqida u quvonib hikoya qiladi: “Tuprogi unumdor, navi yaxshi ekan, o'ttiz sotix yerdan o'n ikki tonna sabzi oldim. Buncha hosilni eskichasiga o'ra qazib saqlab bo'lmaydi, shuning uchun omborga topshirdim. Har kilosiga ming so'mdan ijara haqi to'ladim. Axir, omborning xarajatlari ham oz emas – muntazam elektr energiyasi iste'moli bor, soliqlik va boshqa chiqimlari... Mart-aprel oylarida har bozor kuni yarim tonnacha sabzini bozorga chiqardim. Har kilosi to'rt yarim-besh ming so'mdan ketdi. Xarajatlarimni chiqarib tashlaganimda ham, shu ikkinchi hosil 40 million so'mdan ko'proq daromad keltirdi. Bu yoqda xaridorlarning xursand bo'lganini aytgim. To'y-tantana qilayotgan odamlar kecha qazib olingandek saqlangan sabzini jon deb xarid qiladi-da”.

Qishloq xo'jaligi sohasida qisqa fursatlarda amalga oshirilgan islohotlar samarasi shu bo'liddi, bugun yurtimizda fasllarning farqi qolmadi – yilning istagan davrida ko'nglingiz tusagan mevani, xohlagan sabzavotni cho'ntakbop narxlarda xarid qilishingiz mumkin. Endi “olma pishganda galing” degan ko'hna laparlarimiz ham eskirdi. Tusagan paytingiz olma tayyor! Bu islohotlar bolalik tasavvurlarimizda qolgan “ochil dasturxon”ni haqiqatga aylantirib, hayotimizni farovon qilmoqda.

Prezidentimizning Murojaatnomasida o'tgan yili qo'lga kiritilgan yutuqlar va kelgusida rejalashtirilayotgan loyihalar tilga olinganida, ishtirokchilar dil izhorlarini olqishlar bilan ifodalashdi. Ayniqsa, kelgusida ilk yurtdoshimiz koinotga chiqishi haqidagi xabar hammani oyoqqa qalqitdi – gulduros qarsaklar uzoq davom etdi. Shu bilan birga, ba'zi raqam va faktlar tilga olinganida, tinglovchilar nigohlarida hayrat sezilmadi – yuqorida keltirilgan iqtibos ham shu jumladan. Sababi, bugun bu kabi fakt va raqamlar odamlarni hayratga solmay qo'ygan, bular oddiy holatga aylanib ulgurdi. Islohotlar mo'jizasi degani ana shu.

Ming shukur!

Ro'zimboy HASAN



NAVOIY DAN ULGI OLIB...

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu majlisda Alisher Navoiyning yubileyini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Endi o'ylab ko'ring, qurultoy Ozarbayjonda o'tmoqda, lekin nega Nizomiy, Fuzuliy yoki boshqa bir shoir emas, aynan Navoiy yubileyi o'tkazildi? Chunki Turkiy dunyo Navoiyni turkiy adabiyotning bongchisi o'laroq taniydi. Shundan so'ng, Bokuda Navoiyning "Munshaot" hamda "Vaqfiya" asarlari chop etildi. Bundan tashqari, hazratning o'lmas merosiga oid maqolalardan iborat risola ham nashr qilindi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: "Nega "Majolis un nafa'is", "Lison ut tayr" yoki "Xamsa" emas, aynan "Munshaot", "Vaqfiya" tanlab olindi? Chunki yangi tuzilajak turkiy davlatlar uchun asosiy huquqiy qomus zarur edi. Buning uchun "Vaqfiya"dan yaxshiroq variant yo'q deb hisobladilar. "Munshaot" esa davlat hujjatlarini yuritish uchun qulay qo'llanma bo'la oladi. Axir Navoiyni barcha turkiy xalqlar birdek tushunadi.

Aslida, avvalroq, ya'ni 1902-yilda "Muhokamat ul-lug'atayn", 1907-yilda "Arbayin" asarlari Ismoilbek G'aspralining kirish so'zi bilan Ozarbayjonda chop etilgan edi. Shu davrda "Maorif va madaniyat" jurnallari ham chiqardi. Shu kabi nashrlarda o'n yil davomida Navoiy hayoti va ijodi haqida maqolalar berib borilgan.

1926-yilgi qurultoy samarasi bo'lgan "Alisher Navoiy haqida maqolalar" majmuasida Ismoil Hikmatning "Navoiy va turk adabiyoti", Bakir Cho'bonzodaning "Navoiyning tili va tilchiligi haqida", Mirzo Muhsin Ibrohimiyning "Fors adabiyotining Alisher Navoiyga ta'siri" va boshqa maqolalar o'r'in olgan.

1902–2019-yillar davomida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Holoti Pahlavon Muhammad" singari



asarlari, "Xamsa" tarkibiga kirgan "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" kabi dostonlari hamda muazzam she'riyatidan ayrim namunalar "Tanlangan she'rlar", "Tanlangan asarlar" nomlari ostida ozarbayjon tilida chop etilib, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylandi.

Bugun O'zbekistonda o'tkaziladigan adabiy tadbirlarda Navoiy mavzusi Ozarbayjon uchun yangilik emasligi, xalqimiz bu ulug' mutafakkirni uzoq yillardan beri sevib mutolaa qilishini qayta-qayta aytaman. Eng qizig'i, ozarbayjon va o'zbek xalqlarining ardoqli farzandi, atoqli adib Maqsud

Shayxzodani aynan Alisher Navoiy orqali taniganman. Uning ilk she'rlari ham Navoiy haqida bo'lgan. Aslida, surgun etilgan deymiz-u, lekin uni O'zbekistonga Navoiy nafasi keltirgan. U uzoq yillik izlanishlarning samarasi sifatida 1948-yilda "Navoiyning lirik qahramoni haqida" nomli nomzodlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qilgan. Bundan tashqari, yillar davomida "Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida", "Ustodning san'atxonasida", "G'azal mulkining sultoni" kabi har tomonlama teran tadqiqotlarini e'lon qildi.

Demoqchimanki, Navoiy, Nizomiy, Fuzuliy kabi ulug' siymolar yolg'iz bir millatning adiblari emas, ular butun turkiy dunyoning mutafakkirlari hisoblanadi.

Men o'tgan yili Alisher Navoiy yubileyi munosabati ila yigirmanchi dafa O'zbekistonga keldim. Bu mening baxtim. "O'zbek – Ozarbayjon adabiy aloqalari" mavzusidagi doktorlik ishimni himoya qilganimda ko'rdimki, cheksiz bir kakhkashonda bir yorug' quyosh bor. U – Navoiy! Qolgan barcha yulduzlar uning atrofiga. Tabiiyki, men u quyoshni qo'yib, yulduzlar etagidan tuta bilmasdim.

Taqdirimdan mamnunmanki, ikki marta Hirotga borib, hazratni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'ldim. Kechagidek hamon esimda, 2016-yili Navoiy shahrida adabiy anjuman bo'ldi. Shunda kim hazratimizni ziyorat etgan degan savol yangradi. "Shu davrada bittagina" bo'lganimdan g'ururlandim.

Avvalo, Hirotga ketishimga ko'p qarshiliklar bo'ldi. Uydagilar, yaqin qarindoshlarim va huquqiy tomondan ham. Hatto, o'sha paytlardagi Afg'oniston elchisi bilan yuzmayuz kelib, iltimos qilganimda ham ruxsat bo'lmagan. Lekin, taqdiri ko'ringki, tasodifan bir taklifnoma keldi va o'z-o'zidan yo'llarim

ochilib ketdi. Bordim, hazrat yotgan tuproqlarni o'pdim. Qaytib, ulug' navoiyshunos olim – Suyima G'aniyeva bilan ko'rishdim. Ustozim boshimni silagancha: "Bu mening uzoq yillik orzuyim edi. Sen erishding – xursandman, qizim" deganlari hech ko'z oldimdan ketmaydi. Keyin u menga bir ro'molini bag'ishladi. Tag'in dediki: "Qizim, agar yana yo'ling tushsa, shu ro'mol bilan hazrat Navoiy qabrtoshining g'uborini artib qo'ygin, xo'pmi?"

2021-yilda Xudo menga bu baxtni ikkinchi dafa nasib etdi. Bu safar mutlaqo tasodifan borib qoldim. Eng qizig'i, Suyima opaning ro'molini uyda unutilib qoldirdim deb xavotirga tushdim va shunday sumkamga qo'l solsam...

U paytda O'zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olim Suyima G'aniyeva 86 yoshida olamdan o'tganiga allaqachon uch yil bo'lib qolgandi. Keyin men o'sha ro'mol bilan hazratning qabrtoshini ohista silab, "Suyima opam Sizga salom yo'lladilar, hazratim" deya ohista shivirladim...

Men Navoiydan hayotimning har jabhasida ulgi olishga intilaman. Har gal qiyinchiliklarga duch kelganimda "Bu vaziyatda Navoiy hazratlari qanday yo'l tutgan bo'lardilar?" deb o'z-o'zimga savol beraman va shu orqali har qanday mashaqqatni yengib o'tishga o'zimga cheksiz kuchni his etaman.

Bilasizmi, Ozarbayjonda "Har dafa Qur'onni ochganingda, yangi hikmat olasan", degan gap bor. Men uchun Alisher Navoiy asarlari ham shunday ahamiyat kasb etadi. Har safar uning ilmiy-ijodiy merosiga murojaat qilganda yangi bir maktab eshigini ochgan bo'laman.

To'g'risi, turkiyzabon mamlakatlar ichida hazrat Alisher Navoiyning ijodini o'rganish, tarjima va tadqiq etish borasida Iso Habibbeyli, Ramiz Askar, Yashar Qosim, Bedirxon Ahmedli, G'olib Sayilov, Akif Azalp

kabi ozarbayjon olimlarining ilg'or safida turganimdan behad quvonchdaman va bundan faxrlanaman.

Yuqorida aytganimdek, sizda jadidlar, bizda maorifchilar deya atalgan, ammo mazmunan bitta bo'lgan harakat a'zolarining yuksak g'oyalari doimo mumtoz adabiyotdan oziqlangan. Yillar davomida mustabid tuzum malaylari bizning bir-biriga tutash ildizimizni qirqmoq payida bo'ldilar. Toshkentdagi "Shahidlar xiyoboni"da bo'lganidek, Bokudan uncha uzoq bo'lmagan bir joy bor: o'sha zamonda millat maorifi yo'lida jon kuydirgan insonlarimizning oyoqlariga tosh bog'lab, dengizga cho'k'tirishgan...

Hatto bir-birimizni yaxshi anglamay qolishimiz uchun tarixan bir bo'lgan alif-bomizni o'zgartirishgan. Ikki tilda ham bor bo'lgan ayni tovush ayri-ayri ifodalangan. Masalan, Toshkentda meni haligacha O'lmaxxonim deb chaqiradiganlar bor. Qiziq bir voqea bo'lgan: 1975-yillarda Ozarbayjon xalq shoiri, atoqli millatparvar Halil Rizo Uluturk Toshkentga keladi. Bu yerdagi qardosh adiblar bilan markaziy ko'chani kezayotganda bir hashamatli bino ustidagi "g'aroyib" shiorga ko'zi tushib, boshini changallagancha hayqirib yuboradi: "O'zbek xalqi naqadar dohiy, naqadar jasoratli! Barchasi ochiq-oydin yozilgan!"

Hamma u ko'rsatgan tomonga qaraydi. Ozarbayjonlik shoir o'z shevasida o'qiydi: "Kommunizm bo'sh maqsadimizdir!"

Ma'lum bo'lishicha, shoir "o" harfini "o" tarzida o'qigan...

Umidim shulki, o'sib kelayotgan avlod yillar davomida oldimizga qo'yilgan to'siqlarni butkul olib tashlab, ulug' bobolar orzu qilgan "Tilda, fikrda, ishda birlik"ka erishajak!

Boku – Toshkent – Boku

“HAR KO‘NGILGA ATIRGUL ATRIDAN BER...”

Boshlanishi 1-sahifada.

QISHKI BOG‘LAR...

Qishki bog‘lar, ma‘yus yo‘lkalar...
Kimdir shoshar sayrlashgani.
Vasldan shod bo‘lsa o‘zgalar,
Biz uchrashdik xayrlashgani...

Qor – quvonchga qodir bo‘lsa ham,
Visolga zo‘r chodir bo‘lsa ham,
Unda har ne sodir bo‘lsa ham,
Biz uchrashdik xayrlashgani.

Xiyobonda sang‘ib gadolar,
Pul so‘raydi deb bir balolar,
Kor qilmas-ov endi duolar...
Biz uchrashdik xayrlashgani.

Yurak shaklin yasab barmoqda,
Ne oshiqlar shodon bormoqda,
Gap talashib obdon tarmoqda,
So‘ng uchrashdik xayrlashgani.

Shunday dardda, aziyatdamiz
Va noqulay vaziyatdamiz,
Sevgi arzon jamiyatdamiz
Biz uchrashdik xayrlashgani.

Avtobuslar yuz kelib-ketdi,
Oynalari – muz, kelib ketdi,
Ikkimizga ko‘z tegib ketdi,
Biz uchrashdik xayrlashgani.

BIR SEVDIMKI...

Taqdir menga tutgan nonning
Kepagi ko‘p, saryog‘i yo‘q.
Xoh ishonmang, xoh ishonang,
Bir sevdimki, naryog‘i yo‘q.

Dumin ushlatmaydi visol,
Tutsam – baxtning barmog‘i yo‘q.
Uvol bo‘ldim, faqat uvul,
Zor bo‘ldimki, naryog‘i yo‘q.

Sevgiga arz bitay desam,
Ijtimoiy tarmog‘i yo‘q.
May o‘rniga ichib qasam,
Mast bo‘ldimki, naryog‘i yo‘q.

Bu dunyoning ishi chigal,
Sochi patak, tarog‘i yo‘q.

Uyqum o‘char yetti mahal,
Tun uzunki, naryog‘i yo‘q.

Kerakli yuk bo‘lmas og‘ir,
Visol yo‘lin uzog‘i yo‘q.
Har bardoshda bordir oxir,
Bir toqatki, naryog‘i yo‘q.

Va‘dalarig yo‘qmi yodda,
O‘zi qizlarning sog‘i yo‘q.
Senga ishongan bir sodda
G‘ayratmanki, naryog‘i yo‘q.

ONANGGA BER

Zarra qadar himmat bo‘lsa,
Onangga ber, onangga ber.
Mayli, qancha qimmat bo‘lsa,
Onangga ber, onangga ber.

Birov bilsa-bilmasa ham,
Quvonmasa, kulmasa ham,
Berishni bil, olmasa ham,
Onangga ber, onangga ber.

Ulgurib qol, yugurgin, chop,
Libos kiydir, ro‘mollar yop,
Pul topganda aql ham top,
Onangga ber, onangga ber.

Xasta bo‘lsa – qon yurguzib,
Ishkomlardan uzum uzib,
Atirguldin sharbat‘usuzib,
Onangga ber, onangga ber.

Buncha g‘alati ish bo‘lmasa –
Go‘sh‘t bo‘lganda tish bo‘lmasa...
Shavla bo‘lar osh bo‘lmasa,
Onangga ber, onangga ber.

Safar qildir – qayer bilsang,
Sargardon ham sayr, bilsang,
Bu ishda ko‘p xayr bilsang,
Onangga ber, onangga ber.

Baxtiyor qil, bezor qilma,
Dil oynasin g‘ubor qilma,
Xatoyimni takror qilma,
Onangga ber, onangga ber.

ILTIMOS

Yaratganga bir gap aytgim keladi:
Har ko‘ngilga atirgul atridan ber.

Nomard do‘stga sal-pal chidab bo‘ladi,
Dushman bersang, iltimos, mardidan ber!

Balqib turgan oftoblaring botsa gar,
Gulzoringni aylagaylar otchopar.
Yolvoriblar so‘ragayman har safar,
Dushman bersang, iltimos, mardidan ber!

Senga bari oson, senga mumkindir,
Badbaxtga baxt berib – o‘zidan tindir,
Sindirsang ham zo‘rning qo‘lida sindir,
Dushman bersang, iltimos, mardidan ber!

So‘rsa – mansab bergin, puldan omborlar,
Ko‘ksi medal ko‘rsin, guldin chambarlar,
Duo qilsin ortidan "payg‘ambar"lar,
Dushman bersang, iltimos, mardidan ber!

Kimga yotman, kimlargadir jo‘raman,
O‘z ko‘nglimda men ham bekman, to‘raman.
Qolganini peshonamdan ko‘raman,
Dushman bersang, iltimos, mardidan ber!

PARKENTGA POYEZD KELAR

Gap kelganda bir gapni
Aytmoqlik joiz kelar,
O‘zularning ro‘iyobi
Endi yuz foiz kelar,
Bu azm-u shijoatlar
Yurtboshim bois kelar,
Suyunchi beringlar-ey,
Parkentga poyezd kelar!

Bir paytlari bu gaplar,
Shunchaki mish-mish edi,
Daromadning manbayi
Asosan "kishmish" edi,
Shaharcha orzular-u
Qishloqcha turmush edi,
Suyunchi beringlar-ey,
Parkentga poyezd kelar!

Mashoyixlar ko‘z – qo‘rqoq,
Qo‘l esa botir derlar,
Xudoyim qo‘llasa – el
Har ishga qodir derlar,
Bizda yer, suv, tabiat –
Barchasi nodir derlar,
Suyunchi beringlar-ey,
Parkentga poyezd kelar!

Yangi O‘zbekistonning
Parkenti ham yangidir,

Xoh Kumushkon, Hisorak,
Xohi Zarkent, Changidir,
Barida farovonlik
Va obodlik rangidir,
Suyunchi beringlar-ey,
Parkentga poyezd kelar!

TO‘P BILAN ABDUQODIR

Angliyaning "Manchester Siti"
futbol klubi himoyachisi
Abduqodir Husanovga

Olamda nima gaplar,
Bo‘lmoqda nelar sodir,
Kim yurtidan judo, kim
Tinchlikdan mosuvodir.
Falak ham bo‘ldi go‘yo
Tahlila uzra chodir,
Shukrkim, biz tomonda
Ertadan yo‘q havotir,
Raqiqlar to‘p yo‘qotdi,
To‘p bilan Abduqodir!

Gohida g‘olib keldik,
Arab-u ajam bilan,
Ba‘zida nolib keldik,
G‘azab-u alam bilan,
Ming yillar olib keldik,
Dunyoni qalam bilan,
Dahlor avlodlari
Maydonda ham dahodir,
Endi sen olamni ol
To‘p bilan, Abduqodir!

Futbolda omad degan
Bizlarga ko‘p kelmadi,
Boshga ne kunlar keldi,
Oyoqqa to‘p kelmadi,
Termamiz Mundialda,
Muzqaymoq yeb kelmadi,
Zarbanga o‘shal achchiq,
Armonlar zahrlil jodir,
Yo‘l ochgil Jahon sari
To‘p bilan, Abduqodir!

Kun kelar, muxlislarig
Buloqdek qaynagaylar,
"Mazgi"ni o‘ynaganlar,
Lazgiga o‘ynagaylar...
O‘zbekni "chaynaganlar"
Qalampir chaynagaylar!
Avgust-sentyabrgacha
Endi bamayixotir,
Kuydirgin dushmanlarni
To‘p bilan, Abduqodir!



G‘ayrat SHERALIYEV

Maydonda himoyachi,
Yurtingga esa qalqon,
Sendaylar yov bosganda,
Tog‘larni qilar talqon,
Demishlar shahzodalar,
O‘zbekni uchqur o‘g‘lon,
El-u yurt, shon-u shavkat
Ham g‘urur bebahodir,
Ularni hech alishma
To‘p bilan, Abduqodir!

Sha‘nimiz olam aro
Topmoqda ko‘rk yangidan,
O‘g‘lonlar sabab qaddin
Tutmoqda yurt yangidan,
Futbolda ham o‘tamiz,
Olmon-u farangidan,
O‘smoqda bu diyorda
Hall ming-ming bahodir,
Sen g‘ayrat ber yoshlarga
To‘p bilan, Abduqodir!

FIKR ALMASHISH

O‘ylab ko‘rsak bundoq fikr yuritib,
Fikr alishmoq ham g‘aroyib ishdir:
Shaxsiy fikring bilan boshliqqa kirib,
Uning fikri bilan, qaytib chiqishdir.

MUKOFOT

Mukofot olmasang yo maqto‘v-nishon,
Judayam muhim deb sanasang shuni.
Ranjima, seni ham maqtarlar, ishon,
Zo‘r odam edi deb... janazang kuni.

TIRIKCHILIK

Fotograf tabassum qilib turing, der,
Bank bizdan kredit olib turing, der.
Bosh og‘riqqa dori olib, pul bersam,
Aptekachi tez-tez kelib turing, der...



ENG KATTA BOYLIK

*O'zFA O.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti direktori,
akademik Abbosxon TO'RAYEV bilan suhbat*

Boshlanishi 1-sahifada.

Institut ko'p yillardan buyon yangi original dori vositalarini izlash, ularni ishlab chiqarish va amaliyotda qo'llashgacha yetkazib borish vazifalari bilan shug'ullanadi. Maqsadimiz xalqimizni tabiiy birikmalar asosida yaratilgan samarali dori vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda institut tomonidan o'ndan ortiq dori vositalari yaratildi, ular amaliyotda qo'llanmoqda. Jumladan, "Rutan" tabletkasi gripp va COVID-19 viruslariga qarshi samarali ta'sirga ega. Shuningdek, "Rutan" asosida yangi biologik faol qo'shimchalar – "Rutavir", "Geravir" preparatlari, qon to'xtatish xususiyatiga ega "Gilagin" tabletkasi, tabiiy birikmalar asosida jarrohlik amaliyotlarida qo'llash uchun "Gemostatik gubka" vositasi yaratildi va amaliyotda qo'llanmoqda.

Institutimiz yosh olimlari tomonidan Xitoy Fanlar akademiyasining olimlari bilan birgalikda saratonga qarshi samarador kam toksiklik namoyon etuvchi, saraton hujayrasida to'planish, sog'lom hujayralarga nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydigan xususiyatiga ega "Galaktorubitsin" dori vositasi yaratildi va uning klinikoldi sinovlari tugallanmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida ham ma'lum yutuqlarga erishildi. Jumladan, hosildorlikni oshirishga mo'ljallangan stimulyatorlar ishlab chiqildi. Qolaversa, DAG preparati yaratildi. Ushbu preparat bilan chigitga va g'o'zaga rivojlanish davrida ishlov berish orqali hosildorlik 10-15 foiz ko'tarildi. Ushbu preparat qator qishloq xo'jaligi klasterlari sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi.

Yangi avlod mutaxassislari – bizning faxrimiz. Yoshlarimiz Xitoy, Rossiya, Turkiya, Yevropa mamlakatlaridagi yirik ilmiy markazlarda amaliyot o'tamoqda. Bu, o'z o'rnida, yoshlarni yangi zamonaviy izlanishlarga undab, ilmiy yo'nalishini dunyo standartlari darajasiga olib chiqmoqda.

– Salmoqli yutuqlarda yoshlarning ham hisssasi borligi quvonarli. Xususan, institut qoshida Yosh olimlar kengashi ham faoliyat yuritishi haqida o'qiddik. Uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

– Savollaringiz muassasamizning boshqalar e'tibor qaratmaydigan jihatlarini ham ochib berishga xizmat qilyapti.

Yosh olimlar kengashi institutga asos solinganidan buyon faoliyat yuritadi. Kengash tarkibiga qirq yoshgacha bo'lgan ko'ngilli xodimlar kiradi. Kengash yosh olimlarning manfaatlarini hamda fikrlarini institut rahbariyatiga, ilmiy kengashiga va boshqa ichki, tashqi tashkilotlarga taqdim qiladi. Kengash yig'inlarida ishtirok etar ekanman, shogirdlarimizga tez-tez shunday mulohazarimni aytib turaman:

"Ilm tez natija bermaydi. Ba'zan yillar davomida qilingan mehnat bir necha satrik xulosada aks etadi. Shu jarayonda sabrli va intizomli bo'lish juda muhim. Xatodan qo'rqmang! Ilmiy kashfiyotlarning katta qismi xatolar orqali keladi. Xato – mag'lubiyat emas, balki tajriba. Vaqtdan unumli foydalaning. Vatan va jamiyat oldidagi mas'uliyatni unutmang! Ilm-fanning eng oliy maqsadi – inson va jamiyatga xizmat qilish. Ololning bilim Vatan ravnaqiga hissa qo'shishi kerak. Halollikni ilmiy prinsippga aylantiring! Plagiat, soxta natijalar, yengil yo'llar ilmiy emas, shaxsni yo'q qiladi. Ilmiy halollik – olimning eng katta boyligi!"

Bu fikrlaringma hozir yana bir xulosa qo'shilgan: "Sun'iy intellektidan to'g'ri foydalaning. Ilm ulkan va sirli o'rmon. Unda har kim o'z so'qmog'ini, jilg'asini topishi, shu orqali murosda yetishi kerak. Balki zamonaviy qulaylik sizni "o'rmon"ning shinam nuqtasiga olib kirib qo'yar, lekin unda yashab qolish va kurashish yana o'zingizga qoladi".

– Bu so'zlar ko'p yillik hayotiy va ilmiy tajribalar hosilasi ekan ko'rinib turibdi. Yigirma yildan buyon institut rahbarisiz. Kecha va bugunni qiyoslaganda ko'z o'ngingizdan nimalar o'tadi?

– Fanlar akademiyasining ilm-fanni rivojlantirishga, uni mamlakat iqtisodiyoti bilan integratsiya qilishga, shuningdek, chuqur fundamental izlanishlar, amaliy, innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq qilishga mas'ul tuzilma ekan ko'pchilikka ma'lum. Afsuski, shunday yillar bo'ldiki, mana shu kunday ravshan haqiqatdan ko'z yumildi, Akademiya o'z holiga tashlab qo'yildi. O'sha davrlarda ilmiy xodimlar sobiq ittifoq davridan qolgan ilmiy jihozlarda izlanishlarni davom ettirishga majbur bo'ldi va shu sababli jahon miqyosidagi ilmiy raqobatga dosh bera olmadik...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil so'ngida olim va ziyolilar bilan uchrashuvi mamlakatimiz ilm-fani uchun uyg'onish bongi bo'ldi. Qisqa muddatda olamshumul o'zgarishlar boshlandi. Bir paytlar Fanlar akademiyasi tarkibidan yulib olinib, oliy ta'lim tizimiga o'tkazib yuborilgan institutlar adolatli ravishda qayta tiklandi. Izlanishlar uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ilmiy xodimlar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlandi. Xalqaro hamkorlik eshiklari ochildi.

Bu islohotlar yoshlar o'rtasida ilimga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Bugungi kunda Fanlar akademiyasi tarkibidagi institutlar tomonidan olib borilayotgan fundamental, amaliy izlanishlar xorijda olib borilayotgan tadqiqotlar bilan bemaolol raqobatlasha oladi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarning ilmiy markazlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda ishlashdan manfaatdor bo'lmoqda. Ushbu natijalarning asosiy sabablaridan biri xalqaro va ichki ilmiy loyihalarni davlatimiz tomonidan moliyalashtirish yo'lga qo'yilganida deb bilaman.

Institutlarda yangi ilmiy yo'nalishlar ochilgani yoshlarning ilimga jadal kirib kelishiga turki bo'ldi. Bugun Fanlar akademiyasi institutlari tarkibining qariyb 40 foizini yosh olimlar tashkil etadi.

– Islohotlarning izchilligi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ana shu xayrli ishlarni yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi muhim qadam. Shunday emasmi?

– Ushbu tarixiy qaror ilm-fan oldida turgan muammolarni hal etishning muhim huquqiy yechimi bo'ldi, deb bilamiz. Unda Fanlar akademiyasining o'ta ustuvor ilmiy yo'nalishi aniq belgilab berildi. Shu bilan birga, 2030-yilga qadar ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushini 60 foizga yetkazish, yangi ilmiy ishlanmalar soni va tijoratlashtirishdan olinadigan mablag'lar hajmini 3 baravar, nufuzli jurnallarda maqolalarni 4 baravar, xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar sonini 3 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Bu vazifalarning o'z o'rnida bajarilishini ta'minlovchi sharoitlar davlatimiz tomonidan yaratib berilishi qarorda o'z aksini topgan.

Shuningdek, institutlar uchun eng katta muammolardan biri yakunlangan ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'lib, qarorda bu masalaning yechimiga katta e'tibor qaratilgan. Endilikda olim iqtisodiyot uchun kerakli muammoning yechimi ustida faoliyat yuritadi. Tijoratlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida "Fan va sanoat integratsiyasi kengashini" tuzish nazarda tutilgan. Ushbu kengash Prezident Administratsiyasi tomonidan tasdiqlanadi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyihalar, iqtisodiyot tarmoqlarida yechim talab etadigan muammolar mo'yxatini, davlat tomonidan kafolatlanadigan buyurtmalarni belgilaydi va ilmiy muassasalar tomonidan bajarilgan ishlanmalarning amaliyotga kirib borishi to'la ta'minlanadi.

Fanlar akademiyasi tizimidagi muhim muammolardan yana biri – yangi ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, kerakli yo'nalishlarni uzluksiz moliyalashtirish, maqolalarni nufuzli jurnallarda chop ettirish, ayrim butlovchi qismlarni xarid qilish kabi vazifalar yechimi uchun manba yo'q edi. Qarorda ko'zda tutilgan muhim vazifalardan biri mana shu muammolar yechimiga qaratilgan bo'lib "Fanlar akademiyasi jamg'armasi"ni tashkil etish va yiliga bu maqsadlar uchun 80 milliard so'm ajratish nazarda tutilgan. Bunday yechim birinchi marotaba amalga oshirilmoqda va barchamizni juda quvontirdi.

Xulosa o'rinda bir fikrni ta'kidlab o'tmasam bo'lmaydi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan tarixiy islohotlar va uning samarasi, barcha yutuqlarimiz muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, eng katta boylik – tinchlik sabablidir. Biz ana shu boylikni avaylab, qadriga yetib, hamma jabhada halol xizmat qilsak va shu orqali farzandlik burchimizni o'tsak, o'ylaymanki, hamma sohada, jumladan, ilm-u ma'rifatda ham yuksak marallarni zabt etamiz!

– Xalqimizda "Olim bo'lsang, olam seniki" degan naql bor. Umid qilamizki, ming yillar bayroqdor bo'lgan olimlarimiz oltin silsilasi davom etadi, ergashib kelayotgan yosh izlanuvchilar Sizing qutlug' an'anangizni rivojlantiradi. Domla, samimiy suhbatigiz uchun rahmat! Sizga ezgu va sharafli vazifangizda kattadan katta yutuqlar tilab qolamiz!

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

EHTIROM

TOSHKENTDAGI SAFEDBULON

Ahmadjon Meliboyev haqida gap ketganda, avvalo, bir narsani ta'kidlashim zarur. Uch-to'rt kishilik mo'jazgina qur bo'ladimi yo uch yuz-to'rt yuz kishilik katta davra bo'ladimi, baribir, o'sha joyda Ahmadjon akaning o'rni, lafzi, fikri alohida ajralib turadi, so'zlaganda atrofidagilarning diqqat-e'tiborini ba'zan bir voqea yo hangoma, ba'zan esa, hatto, bir jumla bilan tortib ketadi.

Gapni o'miga qo'yish katta farosat egalarga xos xususiyatdir. Bunga sabab ko'rib-kechirish, dunyoga o'z nazari bilan qarash, mudom mulohaza bilan yurishdir. Ba'zan o'ta rasmiy, sovuq-qina o'tayotgan lanjroq yig'ilishlarda Ahmadjon aka so'zga chiqishi bilan ob-havo birdan o'zgaradi, davra jonlanadi, bir necha daqiqaning ichida qizg'in tus oladi. Shunday paytlarda Ahmadjon aka odamlarning ko'nglidagi gapni qanday topa oladi, buning ustiga shu gapni ifodalashni qanday qilib maromiga yetkaza oladi, deb o'ylab qolardim.

Yaqinda "Ma'naviy hayot" jurnalida u kishining "Safedbulonliklar" essisini nashrga tayyorlayotganimizda, bu savolga qisman javob topganday bo'ldim. Mutolaa vaqtida Ahmadjon Meliboyev O'sh viloyatidagi o'zi tug'ilib o'sgan Safedbulon qishlog'ini hamon o'zi bilan olib yurganiga, ta'bir joiz bo'lsa, Toshkentdagi Safedbulonga aylan-ganiga amin bo'ldim. Ahmadjon aka Safedbulonga, Safedbulon Ahmadjon akaga juda o'xshar ekan. Shuncha yillar davomida, yaxshi-yomon hodisalar ichida, past-baland kechinmalar-u, hayotning og'ir-yengil sinovlarida, dol-g'ali gavjum shahar hayotida o'zing tug'ilib o'sgan olis qishloq tabiatini, ma'naviy ruhini ko'nglingda butun saqlab yurish oson emas. Buning uchun odamga unib-o'sgan yerlariga mehr-muhabbat, ildizlariga chambarchas bog'liqlik kerak bo'ladi. Goho, shaharga uzoqdan kelgan ayrim yigitlarning ikki yil ichida o'zidan boshqa bir odamni yasab olganiga guvoh bo'lamiz. Tuppa-tuzuk, soddagina, beg'uborgina inimiz bir dumalab ayyorgina, xudbingina, soxta bir nusxaga aylanadi-qoladi. Siz tanigan, yaxshi ko'rgan do'lvor yigitdan asar ham qolmaydi.

Esseda Ahmadjon aka shunday yozadi: "Safedbulonda tesha tegmagan qiziq-qiziq aytimlar, maqol-matallarga duch kelasiz. Yonida qog'oz-qalami bor mehmonlar bu yerdan ancha boy bo'lib ketishadi. Mana eshitng: "Urg'ochi eshakning tepkisi yomon", "Kalga malham bersang, boshiga suradi", "Qirqqacha to'lmagan cho'ntakka sonmon ham hayt", "Luqmaning kattasi, gapning kichigi yaxshi", "Qirda oting, qariganda xotining o'lmasin", "Mardga maydon, o'yinchiga ayvon yaxshi", "Quruq arava shallaqi xotonga o'xshaydi", "Eshak siypaganni bilmas, ahmoq – siylaganni", "Toshbaqa elman deydi, chivin biyman deydi", "Oyog'ing oqsoq bo'lsa ham, so'zing cho'ltoq bo'lmasin", "Burgut qarisa kuni sichqonga qoladi", "Bir biyali jonini saqlar, ikki biyali elini boqar", "Yaxshi ovqatning hidi oshqozondan oldin oyoqni qitiglaydi", "Ot qochsa, eshak orqasidan yuguradi".

Bular oltin gaplar. Yuz yil o'yilasang ham topilmaydigan gaplar. Har jumlada katta tajriba, chuqur bilim, teran mulohaza, ko'pqirrali kinoya, til jozibas, badiiy ifoda mahoratini ko'rasiz. Shularni o'qiy turib, "Mana, Ahmadjon akaning topqirligi, hozirjavobligining ildizi qayerda ekan", deb o'ylandim. Shu o'rinda yana bir gap, dunyo dunyo bo'lganidan beri kashf qilolmagan ba'zi g'aroyib o'lchov birliklarini safedbulonliklar allaqachonlar kashf etib qo'yishgan ekan. Diqqat qiling: "bir jag'lik gap", "Bir ko'tarim poxol", "Bir so'kkilik ayb", "Bir ot yuki ko'ch-ko'ron", "Bir ayg'irlik biya", "Bir jilimlik beda", "Bir choy qaynashlik vaqt", "Bilakday suv", "Bir tepkilik (mushtlik, chertkilik) odam", "Bir yo'tallik ish".

Darhaqiqat, odamning qanday muhita o'sib-ulg'aygani, ona tili, el-yurti-ning an'analari va tafakkuri bilan ilk uchrashuvlari uning butun hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Safedbulon haqida o'qiganimda, Ahmadjon Meliboyevning

hayotiy va ijodiy tomirlarini ko'rganday bo'ldim.

Ahmadjon akaning ijodiy faoliyatining 45 yilligiga bag'ishlab 2008-yilda chop etilgan "Qirq beshinchi bekat" degan kitobi bor. Bu kitobni har bir jurnalist bo'laman degan ijodkor o'qib chiqishi kerak. Kitob "Qirq besh yildan beri bosmaxona bo'yog'ining hidi dimog'imga uriladi, ammo biror kunimni gazetasiz tasavvur qila olmayman", degan jumla bilan boshlanadi. Qirq besh yillik tajriba – katta tajriba. Kitobning 1-yanvardan to 31-dekabrgacha bir yillik kundalik shaklida yozilgani alohida e'tiborga loyiq. Chunki keyingi davrda kundalik va albom tutish urfdan chiqib ketdi. Bir paytlar har bir maktab o'quvchisining ham o'z kundaligi bo'lar va u bir kunda ko'rganlarini shu daftariga batafsil yozib borardi. Kundalik tutishning yo'qolishi ijodiy tafakkurning keskin susayishiga sabab bo'ldi. Har bir oilaning o'z albomi bo'lardi. Kelgan mehmon oldiga mezbob choydan ham avval oilaviy albomni qo'yardi. Natijada mehmon shu oila tarixi bilan tanishib olardi. O'quvchilik davri albomi, talabalik albomi bo'lardi. Harbiy xizmatdan qaytayotgan yigit albatta uyoqda tushgan suratlaridan albom tayyorlab qaytardi. Bu hammaga qiziq edi. Bugun suratlar beshiyoga ko'p, lekin albom yo'q. Albomning yo'qolishi inson xotirasining qadrsizlanishiga olib keldi.

"Kundaliklar" haqidagi gaplarimizga qaytsak, "Qirq beshinchi bekat" kitobining kundalik janrida yozilishining o'zi Ahmadjon Meliboyevning o'ziga xos bongi hamdir. Ahmadjon aka o'quvchilik yillaridan boshlab yondaftar tutishni odat qilgan ekan. Bu odat uni asta-asta katta ijodga, katta hayotga tayyorlab borgan. "O'quvchilik yillirimdan boshlab yondaftar tutishga odatlanganman. Unga o'zim guvoh bo'lgan, boshqalardan eshitgan, o'qigan kitoblarimda uchratgan qiziqarli, ta'sirchan voqealarning qisqacha tafsilotini, avvallari uchratmagan so'z va iboralarini, maqol va matallarni, turli rivojatlarni, qishloq, tepalik, dala, adir, jilg'a, soy va ariqlarning nomlarini erinmay yozib yuraman. Keksalar bilan gaplashganimda, ular nutqining o'ziga xos xususiyatlari, masalan, qanday bahslashishlari, tanbeh berishlari va hatto... jahllari chiqqanda qanaqasiga so'kinishlarigacha eslab qolishga harakat qilaman".

Ko'ryapsizmi, Ahmadjon akadagi muntazamlik, ijodiy faollik, yurtpar-varlikning ildizi qayerda? Bu tajriba bugungi yoshi ijodkorlarga saboq bo'lishi kerak. O'zini, tomirlarini, elini, Yerini tanish shunday boshlanadi. Bugungi kunda o'ttiz-qirq yil bir joyda yashab, o'sha joy nomining ma'nosini bilmaydigan muloyimxunuklar, ildizsiz kimsalar ko'payib boryapti. Sin-u sumbatiga qarasang, bip-binoyiday, hatto havas qilgulik, lekin tiynatiga qarasang, sun'iy guldaz, joni yo'q.

Xuddi shu gaplarga hamohang, Ahmadjon akaning yana bir gapi menga qattiq ta'sir qildi:

"Yaqinda bir guruhi bo'lajak jurnalistlarga dars o'tdim. Bu ish bilan ancha yillardan beri shug'ullanib kelaman, ammo bu gal juda... qiynalib ketdim. Gapim qovushmay qoldi. Sababi...

Ko'lingizda bir bog'lam mevali daraxt ko'chatlari. Ularni ekish kerak. Ammo, ko'rib turibsizki, aksariyatining ildizi yo'q. Siz ekasizmi, boshqa bir mirishkor bog'bon ekadimi, baribir, ko'klamaydi, barg yozmaydi, meva tugmaydi. Shuni bila turib ham, ularni ekib, tagiga suv quyayotganingizni, ko'klaydigan va ko'klamaydigan ko'chatlarni bir xil parvarishlayotganingizni, bu bilan o'zingizni o'zingiz aldayotganingizni qanday baholash mumkin?"

O'sha kuni men o'zimni o'zim aldash, dars o'tdim. Chunki menga tikilib, ko'zini olib qochib, saqich chaynab o'tirgan turfa til talaba do'stlarimizning ko'pidan jurnalist chiqmasligi aniq va buni boshqalardan ko'ra ularning o'zlari yaxshi biladilar. Juda achchiq gap, lekin shunday...

Ahmadjon akaning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida va "Jahon adabiyoti" jurnalida bosh muharrir lavozimidagi faoliyatining o'zi bir tarix. Aka qattiq ishlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar va internetdagi suronlar ancha qisib



qo'ygan bosma nashrlarning bugungi ahvoli, g'ariblashayotgan mutolaa madaniyati, ziyosizlashayotgan ziyolilik va buning oqibatida o'tmaslashayotgan did, parokandalikka yuz tutayotgan farosat, mog'orlayotgan dunyoqarashlar uni qattiq tashvishga soladi. Qayda bo'lmasin, hatto oshda bo'lsa ham, bu haqda goho jiddiy, goho hazil-huzul bilan ko'nglidagi gaplarini aytib oladi. Bir vaqtlar katta tirajiga ega ilg'or gazet-jurnallarning obunasi keskin kamayib ketishi milliy tafakkurga nechog'li ta'sir ko'rsatishidan kuyinib so'zlaydi. Shu bois, Ahmadjon aka borgan davraga obuna muammosi ham ergashib boradi. Aka bu masalada bezgina betlarni hech bo'lmaganda bir chimchilab o'tishi bor gap. Ba'zan esa, bir ajoyib lutf bilan bu mavzuga "siyosiy" tus berib yuboradi.

Ahmadjon akaning yana bir fazilati bor. Gap kelganda andavalab, bejab o'tirmaydi. Ko'nglidagini ro'yirost aytadi. Bu birovga yoqib, birovga yoqmasdir, lekin shaxsning pozitsiyasi shunday vaqtlarda bilinadi. Zero, na issig'i, na sovuqi bor bir vagon safsatadan ko'ra, bo'ladigan bitta gap yaxshi.

Ko'pgina adiblar Ahmadjon Meliboyevning sarlavha topish mahoratiga ham tan beradilar. Sarlavhada maqolaning mohiyati, o'zbekcha aytganda, gapning indallosi ko'rinib turishi kerak. Arabchada "indallo" so'zi "Alloh yonida", "Allohga yaqin" degan ma'noni anglatadi. Demak, tilimizda Xudoga yaqin – "haq gap" ma'nosi shu so'zda ifodalanadi. Maqolani uy desak, sarlavha shu uyga olib kiradigan kalit, karvon desak – sarbon. Qolaversa, o'quvchi avvalo sarlavhaga qaraydi. "Hushtakni kim chaladi?", "Torning cho'michdan farqi", "Suvda oqib kelayotgan po'stin", "Oliy nayrang", "O'zimdan o'tganlari", "Cho'zma lag'mon", "Ko'mirga aylangan umr" kabi sarlavhalarni ko'rgan odam bu maqolalarni o'qimay ham ko'rsin-chi.

O'z ishingni sevishing eng katta baxtdir. Hamma muvaffaqiyatlarning siri ham aslida shunda. Ishi yurishmagani-dan nolib yurganlar, avvalo, shu ishiga qancha mehri borligi haqida o'ylab ko'rsalar yaxshi bo'lardi. Men ko'p mashaqqatli yo'llardan Ahmadjon akani o'z kasbiga mehri yetaklab o'tganiga ishonaman. Bu haqda u kishining o'zidan o'tkazib bir gap aytish qiyin: "Jurnalist sifatida dunyoning o'nlab davlatlarini borib ko'rdim. Kitoblar, maqolalar yozdim. Turmushning ko'p mushkulotlarini sabr-qanoat bilan yengib o'tdim. Yaqinda shogirdlarimdan biri mendan: "Agar jurnalist bo'lmaganingizda... boshqa qaysi kasbni tanlagan bo'lar edingiz", deb so'rab qoldi. Men: "Boshqa kasbni tasavvur qila olmayman, jurnalist bo'lmaganimda ham... jurnalist bo'lar edim", deb javob qaytardim.

"Jurnalist bo'lmaganimda ham... jurnalist bo'lar edim" – bu Ahmadjon Meliboyevning hayoti va ijodiga, ruhiyati va tabiatiga mos va xos gap!

O'sha gapim – gap! Mabodo, Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi Safedbulon atalmish g'aroyib va ajoyib qishloqqa boriging kelsa-ya, yo'l olisligi bois borolmasangiz, shundoq Toshkent shahrining qoq markazida joylashgan Adilbar xiyoboni yonidagi Yozuvchilar uyushmasi binosiga borib, "Jahon adabiyoti" jurnali tahririyatiga kirib, eshigiga "Bosh muharrir" deb yozilgan xonaga mo'ralasangiz, qog'ozlarga ko'milib, qattiq ishlab o'tirgan donish-mand Safedbulonni ko'rasiz. Siz albatta ichkariga kirib, Safedbulon bilan suhbatlashing. Menga ishonavering, bu suhbatda ko'p narsadan bahramand bo'lasiz.

Eshqobil SHUKUR



KUZATUV

BUGUNGI YEVROPA

adabiyotiga bir nazar

Hozirgi zamon jahon adabiyoti olami, xususan, Yevropa adabiyoti bag'rida kechayotgan jarayonlarni kuzatar ekanmiz, bir paytlar urf bo'lgan "Adabiyot – adabiyot uchun", "San'at – san'at uchun" qabilidagi tamoyillardan keskin chekinish yoki bu singari adabiy aqidalarni ortda qoldirib, yana ham ilgariylash manzarasiga guvoh bo'lamiz. Garchand, zamonaviy Yevropa adabiyotida ham ommaviy did va iste'molga mo'ljallangan ikkinchi, uchinchi va undan keyingi toifaga mansub siyqa va sayoz, oldi-qochdi, "o'ldim-kuydim"dan iborat chuchmal bitiklar hanuz to'lib-toshib yotibdi. Ushbu yozuvlarda biz xuddi shu bugunning badiiy voqeliligini tamsil etishga da'vogarlik qilayotgan yo'nalish va oqimlar, adabiy maktab va bayon shakllari yuzasidan kuzatuvlarimizni o'rtaga tashlab, mulohazalarimiz bilan bo'lishamiz. Buning uchun, avvalo, hozirgi adabiy taraqqiyotga debocha bo'lgan modernistik va post-modernistik qarashlarga bir qur nazar tashlab o'tishimizga to'g'ri keladi.

REALIZM BILAN BAHS-MUNOZARALAR

Avvalgi realizm bilan bahs-munozaraga kirishgan modernistik adabiyot tanqidiy realizmning ijtimoiy masalalaridan voz kecha boshladi. Bu adabiyot, shuningdek, mantiqiy bog'lanishlarni – XIX asr va XX asr boshlaridagi realistlik yo'nalishdagi asarlarda ko'zga tashlanuvchi bayondagi davomiylik, sabab-oqibatlar zanjiridagi izchillik, voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligi masalalarini ham bir chetga surishni ma'qul topdi. Insonni uni o'rab turgan olamdan ajratib olib, mufassal tadqiq etishni asosiy maqsadi sifatida bilib, buni o'zining bosh belgilaridan biriga aylantirdi.

Modernistik adabiyot qahramoni o'zi tarbiya topgan jamiyatda amalda bo'lgan turmush tarzi, urf-odat va yurish-turish qoidalari hamda o'zaro aloqa-munosabatlar majmuyi emas, balki makon va zamondagi har qanday munosabatlardan xoli tarzda namoyon bo'ldi. Boshqacha aytganda, u makondagi aniq belgilab qo'yilgan muhit va faoliyat sharoitlaridan, zamondagi shakllanish va kamolga yeta borish jarayonlaridan ozod etilgan tadqiq manziliga evrildi. Muayyan asar qahramonini alohida, har qanday qoliplardan xoli va ozod olib qarash, uni shu holicha tadqiq etish adabiy xolislikning yuksak namunasi tarzida ko'rildi.

Modernist adib epik-bayon uslubidan qat'iyan voz kechadi. Bunday asarlarda muallif nuqtai nazarini, tasvirlanayotgan jarayonlarga uning "burun suqishi" imkonsiz, voqea-hodisalarga nisbatan muallif bahosi va hukmi batamom soqit qilinadi. Qahramonlarning o'z holicha va tabiiy harakat qilishlari ham aslida adabiy xolislik emasmi?

Modernistik asarlardagi kuzatish maydoni, voqea-hodisalar ro'y berayotgan maydon aslida tashqi olam emas (garchi tashqi olam unsurlari ko'rinib tursa ham), balki u atrofdagi jamiyatdan holi bo'lgan alohida bir shaxsning ichki olamiga, uning tafakkuriga ko'chib o'tadi. Va shu tariqa, tipik shaxslarni (bir xil tusdagi oddiy va zerikarli shaxslarni) tipik sharoitlarda (bir xil tusdagi oddiy va zerikarli sharoitlarda) tasvirlashga ruju qo'ygan realistlik va sotsial-realistik adabiyotga qarama-qarshi o'laroq, modernistik adabiyotning tadqiq obyekti favqulodda va gohida esa o'ta xasta ruhiyatga ega alohida olingan shaxs bo'lib qoladi hamda ko'z o'ngimizda bu shaxs ruhiyatidagi barcha tovlanish va evrilishlar namoyon bo'lib boraveradi.

Bu shaxs alohida olingan, barcha ijtimoiy mezon-qoliplardan ozod inson ekan, modernistik adabiyotning asosiy masalalaridan biri – yolg'izlik va ojizlik qoidalari yuzaga chiqib keladi. Kafka va shu yo'ldagi boshqa adiblar qarashlariga ko'ra, inson o'zining yakka-yolg'izligi va mushqirap-ojizligi holicha aniq bir dushman va yo aniq bir kishilik jamiyatiga emas, balki butun olamga, taqdiri azal deb qaraluvchi butun borliqqa qarshi turadi. Va bu olamni hech mahal tafakkur bilan anglash mumkin emasdir.

POST-MODERN ADABIYOTI SIFATLARI

Modernizm bilan post-modernizm hududlarini, ular shakllana boshlagan davrni aniqlash imkonini bo'lmasa-da, ayrim tadqiqotchilarning ishonishicha, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar post-modernizmning yuksalish davri sanaladi. Post-modernizm mutlaq haqiqat mavjud emasligi, atrofdagi voqelik aslida bir matn va shu matnning turli ifoda-talqinlari ekanini haqidagi qarashlarni ilgari suradi.

Unga ko'ra, qog'ozga tushirilayotgan (yoki tushirib bo'lingan) matn (hikoya, qissa, roman) takomil topib borishi davomida har turli janr, uslub va azaliy andazalarni o'zi istagan ko'ylarga solib, avvalgi modernizmning jiddiy ohangidan begonaroq, o'ynoqi tilda so'zlaganicha, aynan shu asar mutolaa-siga sho'ng'igan (sho'ng'iyotgan) o'quvchi bilan bekinmachoq o'ynashga ruju qo'yadi. Muayyan asar-ni muayyan muallifi mavjud ekanini bilib tursak-



da, asarni o'qishga bel bog'lagan o'quvchiga satrlar aro zimdan murojaat qilib, aslida yozib bo'lingan-u, ammo mutolaa jarayonida sahifama-sahifa bitib borilayotgan asarning hammuallifi bo'lishga taklif ishoralarini yo'llayotganini payqaganday bo'lamiz.

Bundan tashqari, diqqatimizni matnga yanada tiyrakroq jamlasak, asar qahramonining o'zi ham shu asar syujetining bir unsuri ekanini bilib turgani va shunga muvofiq harakat qilayotganini anglaymiz. Bunisi ham mayli, ammo bu qahramon faoliyatda bo'lgan syujetning o'zi ham endi o'zini o'zi sharhlab, tafsir qilishga kirishib ketganini bilgach, asar muallifi kim-u personaj kimligini yoki bularning munosabatlari orasida adashayozgan mutolaago'y – o'zimizning o'rnimizni aniq-tiniq belgilay olmay, adabiy qarxtlikning bahrali ta'midan tamshanib qolaveramiz.

Qat'iy tartibga bo'sundirilgan yaxlit syujetning yo'qligi, yuzaki qarashda mutlaqo bir-biri bilan bog'lanmagan har turli voqealarning uzuq-yuluq laxtaklari hech kutilmaganda qarshimizda paydo bo'lib, endigina mantiq so'qmog'iga tushib olayozgan diqqatimizni yana parokanda qilib yuborishi, Vaqtning shu vaqtgacha shuurimiz ko'nikkan shaklda (kechmish – bugun – kelmish) – avvaldan belgilab berilgan yo'nalish bo'yicha oqishi lozim bo'lgani holda, "kechmish, bugun va kelmish" endi bir butunlikda bor bo'lib, bu shakllarning barchasi bir-birining hududiga muntazam sizib kiraverishi post-modern adabiyotning navbatdagi sifatlari sirasiga kiradi. Asar davomida sodir bo'lgan (bo'layotgan) bu yo'sin taloto'plarning barchasidan maqsadning ne ekani eng pirovardida oydinlashib, ich-etingizni kemirgan savolmi-taajjublarga kitob xotimasida jo'yali javob toparman, qabilida umidvor bo'lasiz hamki, ammo bu kutuvingiz-da chippakka chiqib, so'nggi sahifaning so'nggi jumlasini yakunlashingiz hamono, xayollaringiz har taraf sochilib, yana bir dunyo savollar iskanjasida yolg'iz qolaverasiz.

Post-modern adabiyotning intilishlari shu bilangina tamom bo'lmaydi. Bunda biz yana istiloh, ishora va boshqa asarlarga mo'l-ko'l havolalarga yo'liqamizki, muntaz adabiyot bilan bugungi ommaviy madaniyat, ko'hna asotirlar bilan kundalik turmush manzaralari-yu reklama lavhlari, qadim falsafiy arkonlar bilan bu kunning siyqa ayuhannoslari g'alat tarzda o'zaro qorishib boraveradi, bir matnning bag'ridan joy olgan tanish yo notanish boshqa matnlar birlashib yoki ayrilib, ajoyibxona manzaralarini namoyon qiladi. Boya aytilganidek, bu tur asarlarda tom ma'nod muallifning o'ziga ham "janoza o'qilib", matndan ko'zlangan maqsad va ma'nolar talqini mutolaago'yning o'ziga havola etib qo'ya qolinadi.

G'OYA VA QAHRAMONLARGA BEE'TIMODLIK

Urfdan bo'lgan "ulug' g'oya"larga bee'timod post-modernizm jamiyat taraqqiyoti, muayyan bir xalq yoki shaxsning tarixiy missiyasi, mutlaq haqiqat singari tushunchalarni shubha ostiga olib, mardonavor qahramonlarga doir rivoyatlarni ham keskin inkor etadi. Avvalgi aqidalarga ko'ra, tarix oldinga – asotirlardan tafakkurga, alg'ov-dalg'ov xaosdan tartib va nizomga, jaholatdan tamaddunga ilgariylash tarzida tushunilib, badiiy adabiyot ham xuddi shu yo'nalishni o'zida aks ettirish vositasida inson kamolotiga ulush qo'shishga da'vat etilgan bo'lsa, post-modernizm bu o'rinda ham keskin e'tirozlarini o'rtaga tashlaydi. Taraqqiyot g'oyasini yangi zamon cho'pchaklaridan biri sifatida talqin qiladigan post-modernizm texnikaviy va ruhiy-axloqiy yuksalishni ham, aslida, yuqori doiralar avom hazmi uchun taqdim etayotgan uydirmadan boshqa narsa emas, deb ishonadi.

Post-modernizm tushunchasiga ko'ra, XX asr va bugungi kundagi hech poyoni yo'q savash-urushlar, inson qadr-qimmatini beayov toptagan va toptashda davom qilayotgan ommaviy qirg'inlar "yorqin kelajak"ka umid va ishonchlarni barbod qildi. Natijada butun boshli jamiyatlarni qamrab olgan

ruhiy tushkunlik badiiy adabiyotda ham in'ikosini topib, oxiri baxayr xotimalangan asarlarni topib bo'lmay qoldi – syujet takomili davriy takrorlanish yoki absurdlikka qurilgan bu asarlarda kelajakning o'tmishdan ko'ra avlo va yorug'roq bo'lishiga va'dalarni endi uchratmaymiz.

Mazkur oqim falsafasi bu dunyoda olijanob xalq va yuksak burch-maqsadlar mavjud emas, tarix esa uni turlicha anglash va mana shu turlicha anglash oqibatida kelib chiqqan sanoqsiz talqinlar to'plamidan o'zga narsa emas, deya talqin qiladi. Shundan kelib chiqib, tarixiy voqealarga istehzo bilan yondashilgan post-modern adabiyotida "yuksak g'oyalar" hokimiyat jilovini tutgan doiralarning oddiy safasati sifatida taqdim etilib, go'yoki tarix taloto'plaridan muzaffariyat yalovini baland ko'tarib chiqqan g'olib-qahramonlar ham xuddi shu o'tmish chorahalarida g'oyib bo'lishga mahkum etiladi.

Modernizm va post-modern davriga qadar yagona va mutlaq haqiqat yoki voqelikni tafakkur, ilm va san'at ko'magida inkishof etish mumkinligi, muayyan muallif uni matnda to'g'ri va sahih ifoda etishga qodir ekaniga nisbatan komil ishonch ustuvor yondashuv sanalgan bo'lsa, endi o'sha haqiqat yoki voqelik ham mutlaq va yagonalik sifatini boy berib, bitta o'rniga endi uning ko'plab mutanosib ko'rinishlari mavjudligi hamda haqiqat yoki voqelikning har bir ko'rinishi aslida u haqda so'zlangan ko'plab ehtimoliy hikoyalarning birginasi ekani baralla e'lon qilindi. Ushbu ta'kidlarni badiiy adabiyot sahniga ko'chiradigan bo'lsak, aynan bir voqea turli personajlar tarafidan turlicha bayon qilinadi va bu bayonlarning birortasi ishonchli ekani ma'lum qilinmaydi. O'quvchining o'zi o'z quvvayi hofizasiga binoan asar ma'nolarini saralab borsa-da, ammo u ham nihoyaviy yechim va yakuniy javobga musharraf bo'la olmaydi.

Til voqelikni o'zida aks ettirmaydi, bil'aks, uning shaklini chizib, tarxini tuzadi. Har qanday matni adoqsiz tarzda turlicha mutolaa qilish mumkin. Shu tariqa, ishonchga "noloyiq" muallif qalamiga mansub "omonat" asardagi voqeaning ko'plab ziddiyatli talqinlariga yo'l qo'yiladi va avvalgi asarlardan ko'zlangan ishonchga sazovor yagona ma'no, ya'ni "qissadan hissa"ga o'rin qoldirilmaydi.

Ulug'vor maqsadlar yo'lida jasorat ko'rsatadigan, ezuq amallar mujassami sifatida alqangan o'tmishning buyuk bahodir va qahramonlariga oid afsona va rivoyatlar post-modern adabiyotida o'z qadr-qiymatini yo'qotadi. Bu qahramonlar timsoili tanazzulga duchor qilinadi, ularning tillarda doston shuhrati aslida soxtakorlik mahsuli deb qaralib, muayyan qahramon o'rnini boshqa aksil-qahramon yoki tasodifiy personaj egallaydi. Avvalgi qahramonlar shu tariqa xatkor va gumrohligi bilan boshqa o'z bandalar darajasiga tushirib qo'yiladi. Ular jasorat deyishga birmuncha arziri qay bir tadbirga qo'l urganlari chog'ida ham, ushbu dadillikning qadri ko'rinmaydi yoki beo'xshov taqdir tarzida kalaka ostiga olinadi. Sobiqning havolangan jo'shqinligi joriyning istehzo-yu kesatig va sulloh-u surbet mutoyibasiga taslim bo'ladi.

Mazkur qaydlarning xulosasi shuki, modern va post-modern falsafasi va adabiyoti eskilari o'rniga yangi haqiqatlarni qaror toptirmaydi, balki har qanday o'zgarmas haqiqatlar, aslida, tamaddun va hokimiyatning istak-ixtiyori bilan yaratilgan naql va matallar, asotir va afsonalar hosilasi ekanini ta'kidlaydi. Shu sababli ham, bu falsafa va adabiyot o'zgarmas bilingan azaliy arkonlarni muttasil shubha ostiga oladi, ularni bo'laklarga ajratib, ular asosida yotgan andoza va ziddiyatlarni o'z o'lchovlari bilan tadqiq etishga harakat qiladi.

Aslida, qotib qolgan qonuniyatlarni qayta tafakkur qilishga intilish, eskilik xarobalari oralay yangi ufqlar sari boshqa so'qmoqlar ochilishiga ishonch yoxud ehtiyoj adabiyot va falsafada yangi-yangi oqim va yo'nalishlarni yuzaga keltiradi.

Sharifjon AHMAD.
Amsterdam

QUTLOV



HAR ISHI IBRAT, HAR SO'ZI HIKMAT

Oramizda qonun ustuvorligi va adolat tantanasini hayotining mazmuniga aylantirgan, taqdirini, umr yo'llarini mamlakat kelajagi bilan chambarchas bog'lagan shunday insonlar borki, ular xalqimizning og'ir va sinovli yillarida ham sinmasdan, vijdoniga va burchiga sodiq qola olgan fidoyi va mard farzandlaridir. O'zbekiston prokuraturasi faxriysi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Botir Kalonov ana shunday insonlardan biri.

Uning mehnat faoliyati Vatani-mizning mustaqillikka erishishi arafasidagi mashaqqatli davrlar, istiqlolni ilk qadamlaridagi qiyinchiliklar va eng mas'uliyatli yillar bilan uyg'un. Davlatchilik asoslari shakllanayotgan, qonun ustuvorligini ta'minlash, yurt osudaligini barqaror ushlab turish oson bo'lmagan yillarda u bor kuch-g'ayrati, bilim va hayotini Vatan manfaati uchun safarbar etdi, qiyinchiliklardan aslo cho'chimadi, mas'uliyatdan chekinmadi.

Biz Botir Kalonov deganda mamlakatimiz prokuratura tizimining ma'naviy tayanchi, tajriba va jasorat timsolini tushunib qolganmiz. Uning yaratgan maktabi, qat'iyati va adolatparvarligi bugungi avlod uchun har tomonlama ibrat ekanini uni tanigan-bilgan har bir kishi chin yurakdan e'tirof etadi. Usto'z ayni paytda tabarruk 85 yoshini qarshi olayotgan bo'lsa-da, qo'l qovushtirib o'tirishni o'ziga ep ko'rmaydi, to'plagan boy bilim, tajriba va ko'nikmalarini ezuq amallarga sarflab keladi.

Botir Kalonov Qashqadaryo viloyatining fayzli maskanlaridan biri – G'uzor tumanida tug'ilgan. U prokuratura organlaridagi faoliyatini 1965-yilda Qarshi shahar prokuraturasida katta tergovchi sifatida boshlab, Qashqadaryo viloyati prokuraturasida bo'lim boshlig'i, Qarshi shahar prokurori, Qashqadaryo viloyati prokurori, Toshkent shahar prokuraturasida bo'lim boshlig'i o'rinbosari, Sirdaryo viloyati prokuratori, Sirdaryo viloyati prokurori kabi mas'ul lavozimlarda mamlakatimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qildi.

U qaysi hududda, qanday lavozimda ishlamasin, qonuniylikni ta'minlash, inson huquq va manfaatlarini himoya qilishda adolat tamoyillaridan og'ishmadi. Samarali mehnatlari evaziga "3-darajali davlat adliya maslahatchisi" maxsus unvoni, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvoni, "Hurmat belgisi" ordeni, qator medallar va faxriy yorliqlar, esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.

Yaqindagina, 2026-yilning 8-yanvarida esa O'zbekiston Prezidentining farmoniga binoan

yana bir yuksak mukofot – "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. Bu ham Botir akaning bugungi kundagi faoliyati, fidoyiligi uchun berilgan oliy baho, hurmat va e'zoz ifodasi bo'ldi. Shu bois, mazkur e'tirof mamlakatimizning prokuratura tizimi xodimlari va faxriylarini birdek mamnun etdi.

Botir Kalonov 2002-yildan buyon O'zbekiston prokuratura organlari faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Tinib-tinchimas, serg'ayrat inson markazning asosiy tashkilotchilaridan bo'lib, umrini el-yurt tinchligi uchun baxshida etgan prokuratura faxriylaridan kunda-kunora xabar olishdan charchamaydi. Davlatimiz rahbari 2020-yil 9-may kuni G'alaba bog'ining tantanali ochilishida yoshlarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, uch avlod uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risida tavsiya berganlaridan keyin u Bosh prokuror rahbarligida bu uchrasuvlar g'oyasini hayotga izchil tatbiq etib, faxriylar, amaldagi xodimlar va yosh mutaxassislar o'rtasida ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlab kelmoqda. Faxriylarning sog'lig'ini tiklash, ijtimoiy muammolarini hal etish, yubiley yoshlarida shaxsan borib Bosh prokuror nomidan tabriklash uning kundalik mehnatiga aylangan.

Botir Kalonov oilaviy hayotda ham namuna bo'la oladigan inson. Turmush o'rtog'i bilan birga farzandlarini barkamol, el-yurtga nafz keltiradigan, oliy ma'lumotli mutaxassislar etib tarbiyaladi. Bugun ular jamiyatning turli sohalarida halol mehnat qilib, ota-onasiga munosib bo'lishdek burchni ortig'i bilan ado etib kelmoqdalar.

Ortda qolgan 85 yillik umr – shunchaki raqamlar emas. Bu yillar Botir aka uchun boshdan kechirilgan sinovlar, qimmatli tajribalar va to'plangan bebaho ma'naviy xazinadir.

Tabarruk yoshi munosabati bilan Botir Kalonovga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt, farzandlar va nabiralari kamolini tilaymiz!

**O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi jamoasi**



MILLAT FIDOYILARI

1937-1938-yillardagi mudhish “katta terror” yuhosi oʻz domiga tortib ketgan har bir ayanchli taqdir qalbnı ezadı. Hujjatlar bilan yaqından tanişhgan sayın, barchamiz uchun bir haqiqat tobora oydinlashadı: koʻplab nomlar yillar davomida sukunat ortida qolib, qachonki, yaqinlarining soʻngsiz murojaati, iltimoslari, oh-u zorlari ortidan yuzaga chiqqan.

Ana shunday fojiali qismat egalaridan biri Akbar Ahmedov 1901-yili Fargʻona viloyatining Qoʻqon shahrida tavallud topgan. Uning bolaligi otasiga ergashib suvoqchilik qilish bilan oʻtadi. Lekin ogʻir mehnat zalvori ostida oʻqishni ham chetga surib qoʻymaydi. Dastlab uch yil tatar maktabida, soʻng bir yil rus maktabida tahsil oladi. Shu tariqa, oʻn besh yoshiga qadar oʻqish barobarida suvoqchilik ishlarida otasiga qarashib yuradi. Ana shu mehnat va oʻqish muhiti uni shahar hayoti bilan yaqindan tanishtirib, keyinchalik jamiyat ishlariga jalb etilishiga zamin yaratadi.

1917-1918-yillarda Qoʻqon shahrida inqilobiy voqealar yuzaga kelgan bir paytda, qahramonimiz bevosita bu jarayonlar markazida boʻlgan avlod vakillaridan edi. Shaharda hokimiyat almashinuvi, iqtisodiyotning izdan chiqishi, tartibsizlik va zoʻravonlik holatlari uning hayot tajribasida chuqur iz



Akbar Ahmedov

qoldirgani shubhasiz. Shu sharoitda kommunal xoʻjalikda mehnat qilayotgan ishchi yoshlar shahar hayotining eng ogʻir yukini koʻtargan qatlamlardan biri boʻlganini kuzatamiz. Qolaversa, ishchi muhitida shakllangan yoshlar uchun jamoaviy tashkilotlar, xususan, kasaba uyushmalari mehnat manfaatini himoya qilish bilan birga, yangi jamiyatda oʻz oʻrnini topish vositasi ham edi. Shunga koʻra, 1918-yildan Akbar Ahmedovning quruvchi ishchilar uyushmasi faoliyatiga qoʻshilishini tasodif deb sanamaslik kerak.

1920-yillarning oʻrtalariga kelib, shahar hayotida tartib, taʼminot va ish masalalari eng dolzarb muammolardan boʻlib qoldi. Bozorlarda oziq-ovqat tanqis, korxonalarda ishchi yetishmas, aholi

esa kundalik tirikchilik gʻamida andamon edi. Ana shu sharoitda davlat idoralari odamlar bilan bevosita ishlay oladigan, ishchi muhitini yaxshi bilgan shaxslarga yanada koʻproq tayana boshladi. Akbar Ahmedov 1924-yildan Fargʻona oblasti mahbuslar turar joyida inspektor vazifasini bajaradi. 1927-yil mart-oktyabroylarida oblast partiya komiteti qarori bilan okrug mahalliy xoʻjalik boʻlimiga rahbarlik qiladi. Oʻsha yilning oktyabrida okrug quruvchilari soyuzi raisi etib saylanadi. Keyinchalik respublika quruvchilari Markaziy kasaba soyuzi raisi oʻrinbosari sifatida ish olib boradi. 1929-yilda Oʻzbekiston sovet kasaba uyushmalari raisining oʻrinbosari etib saylanadi. 1930-yilda Samarqand okrug partiya komiteti sekretari boʻlib ishlaydi, okruglar tugatilgandan soʻng esa Oʻzbekiston kasaba uyushmalari soveti raisi lavozimiga koʻtariladi. 1932-1933-yillarda Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida taʼminot boʻyicha kotib, 1935-yil avgustidan 1936-yil dekabrighacha sovet savdo boʻlimi mudiri, 1937-yil yanvaridan gʻallachilik va chorvachilik sovxozlari xalq komissari, 1937-yil 15-iyuldan esa Oʻzbekiston SSR ichki savdo xalq komissari sifatida faoliyat yuritadi.

1930-yillarga kelib respublika hayoti goʻyo barqaror koʻrina boshlagan boʻlsa-da, Ahmedovning partiya va davlat tuzilmalari-dagi faoliyati ikkiyoqlama muhitda kechar edi: bir tomondan davlat ishlarini uzluksiz yuritish talabi turgan boʻlsa, ikkinchi tomondan har bir qadamini doimiy nazorat qiladigan poyyolqchi tizim taʼqib qilardi. Shundan koʻrinadiki, bu paytda masʼul lavozim yaxshigina xavf manbayi ham edi. Ayniqsa, mahalliy muhitni bilgan, mustaqil qaror chiqara oladigan kadr-

lar shubha ostiga olinib, kuza-tila boshlandi. Akbar Ahmedovning 1930-yillar davomida yuqori darajadagi lavozimlarga jalb etilganini uning faolligi bilan bogʻlash har jihatdan toʻgʻri, biroq bu holat qahramonimiz taqdiri tobora qatagʻon tigʻiga yaqinlashib borayotganini ham anglatardi.

1936-1937-yillarga kelib sovet ittifoqida partiya va davlat apparatida kadrlarga munosabat tubdan oʻzgardi. Ayniqsa, respublika darajasida ishlagan, hurfikir, uzoq yillik tajriba toʻplagan kadrlarga xavfli toifa sifatida qarala boshlandi. Partiya va sovet organlarida “tozalash” kampaniyalari kuchayib, kechagina masʼul lavozimlarda ishlagan shaxslar birin-ketin ishonchsizlik tamgʻasi bilan chetlatildi. Arxiv hujjatlari shuni koʻrsatadiki, ayblovlar aksar hollarda aniq harakat yoki jinoyatga emas, balki shaxsning kelib chiqishi, ilgariqi faoliyati, mahalliy muhit bilan bogʻliqligiga tayangan. Shu davrda “millatchi”, “aksilingilobchi”, “yashirin tashkilot aʼzosi” kabi ayblovlar qatagʻon mexanizmining ajralmas qismiga aylandi.

1937-yil 29-sentyabr kuni Akbar Ahmedov ham ana shunday ayblovlar bilan Toshkent shahrida hibsga olinadi. Qatagʻon siyosati uning oilasiga ham raxna soladi. Ayoli Adolatxon Abdullabekova uch farzandi bilan ogʻir sharoitda qoladi. 1937-yil 3-oktyabrda chiqarilgan maxfiy buyruqqa muvofiq, bolalarni tarbiya muassasalariga joylashtirish belgilanib, oila butunlay parchalanish yoqasiga kelib qoladi. Eng ogʻriqli holat esa Akbar Ahmedov taqdiriga doir noaniqlik edi. U qayerda saqlanayotgani, qanday ayb qoʻyilgani haqida yaqinlariga hech qanday darak berilmadi. Aslida,

mana shu sukunatning oʻzi oʻn minglab oilaning yuragidagi zil tosh, yana necha minglab oilalarni umid va noumidlik orasida sarosar qoldirgan dahshatli azob edi.

Aslida, 1938-yil 5-oktyabr kuni SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi qarori bilan Akbar Ahmedov otuv jazosiga hukm qilingan va hukm oʻsha kunioyq ijro etilgan, bunga doir hujjatlar uzoq yillar Moskva arxivlarida maxfiy saqlanib, yaqinlaridan sir tutilgandi.

Oradan yillar oʻtib, qatagʻon oqibatlarini qayta koʻrib chiqish imkoniyati paydo boʻlgach, koʻplab begunoh insonlar nomini oqlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Shu tariqa, 1957-yil 8-fevral kuni Adolatxon Abdullabekova Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga murojaat yoʻllab, shuncha yil oʻziga noayon haqiqatni oydinlashtirib berishni iltimos qiladi. Ular bunga qadar tegishli idoralarga bir necha bor murojaat qilganida, “Akbar Ahmedov 1938-yil 5-aprel kuni Smolensk viloyati, Vyazma shahridagi Ichki ishlar xalq komissarligi lageriga joʻnatilgan”i maʼlum qilingan, butun oilaning ovunib yashab kelgan birdan bir taskini ham shu ikki enlik maʼlumot edi.

Biz esa ushbu taskin ortida oʻzimiz uchun koʻpdan koʻp haqiqatni uqamiz. Eng muhim haqiqat shuki, bugun biz yashayotgan farovon hayot, mustaqil Vatan, osuda kunlar qurbonlarsiz bunyod boʻlmagan. Bizning zimmasizda tinchlik-totuvlik hukmron shunday zaminni asrab-avaylash, yoshlarga kimlarning avlodi ekanini anglatishday sharaflı vazifa borligini unutmashligimiz dardkor.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Rustambek Niyozbekov – 1894-yili Toshkentda tugʻilgan. Eski maktabda savod chiqargan. 1918-yili toshkentlik taraqqiyparvarlar bilan birga 8 oylik oʻqituvchilar kursini tashkil etgan. “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihad” tashkilotlarida faol xizmat qilgan. 1921-1922-yillari Turkiston ASSR maorif xalq komissarligi xoʻjalik boʻlimi rahbari boʻlgan, maorif komissarligi Vaqf boʻlimida faoliyat yuritgan. Munavvar qoriga yaqin kishi sifatida 1930-yil boshlarida qamoqqa olingan. 1932-yil 13-aprelda Novosibirskda vafot etgani haqida maʼlumot bor.

Qilich Abdullayev – 1900-yili Behbudiy shahrida tugʻilgan. Oʻtmishda Kerki bekligida xizmat qilgan, partiyadan oʻchirilgan. Qamoqqa olingan paytda Oʻzkombinatda ishlayotgan boʻlgan. “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi boʻlgan. Milliy ozodlik harakati vakillarini qurol bilan taʼminlab turganlikda va aksilingilobiy, tashkilot yigʻilishlarida sovet hokimiyati bilan kurashish boʻyicha tizimli targʻibot olib borganlikda ayblangan. OʻzSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrdan hisoblangan.

Solih Jumayev – 1881-yilda Shofirkon rayoni Qatogʻon qishlogʻida tugʻilgan. Millati oʻzbek. “Milliy ittihad” tashkiloti aʼzosi. Hibsga olingan vaqtda kolxoz kotibi boʻlgan. Doimiy ravishda aksilingilobiy magʻlubiyatchilik targʻibotini olib borgan uchun OʻzSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 10 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 28-noyabrdan hisoblangan.

Nabixoʻja Saidxoʻjayev – 1879-yili Toshkent shahrida tugʻilgan. Diniy xizmatchi, imom. “Shoʻroyi Islom” tashkilotining faol aʼzosi, aholi orasida doimiy ravishda magʻlubiyatchilik va fashistik targʻibot olib borganlikda ayblangan. Nabixoʻja Saidxoʻjayev 4574-sonli ish boʻyicha ayblanib, oliy jazoga hukm qilingan.

Mahmud Nurillayev – 1873-yili Buxoro shahrida tugʻilgan. “Shoʻroyi Islom” faoliyati uchun qamoqqa olingan. U tabiblik bilan shugʻullangan. Aholi orasida aksilingilobiy magʻlubiyatchilik targʻiboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. Buxoro sektori taqdim etgan 2437-sonli ish boʻyicha otuvga hukm etilgan.

Tolibjon Oxunjonov – 1884-yili Qoʻqon shahrida tugʻilgan. 1920-yildan 1930-yilgacha partiya aʼzosi boʻlgan. Aksilingilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoqqa hukm qilingan va shu sabab partiyadan oʻchirilgan. “Milliy ittihad” tashkilotining aʼzosi boʻlgan. Aholi orasida millatchilik targʻiboti olib borganlikda, ocharchilik toʻgʻrisida mishlar tarqatganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Aʼzam Ayupov – 1904-yili Toshkent shahrida tugʻilgan. U 1935-yili rus tilida bitilgan oʻz tarjimai holid shunday yozgan: “...1919-yilgacha quyi – oʻrta maktabda (7 yillik) oʻqiganman, 1921-yilga qadar turli kurslarda oʻqish bilan birga ishlaganman, 1919-yildan 1920-yilgacha “Turon” kutubxonasida kutubxonachi, undan soʻng “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetaları tahririyatida va hozir “Qizil Oʻzbekiston” gazetasida ishlamoqdaman. Mazkur redaksiyalarda adabiy xodim, korrektor, boʻlim mudiri, masʼul kotib oʻrinbosari, masʼul kotib sifatida faoliyat koʻrsatganman. Hozirgi vaqtda “Qizil Oʻzbekiston” redaksiyasida masʼul kotib va “Guliston” jurnalida muharrir oʻrinbosari vazifasidaman”.

Aʼzam Ayupov “Yer yuzi” jurnali masʼul kotibi, “Qizil Oʻzbekiston”, “Правда востока” redaksiyasi xodimlari kasaba soyuzi raisi boʻlgan. U rus, turk, tatar tillarini bilgan. Aksilingilobiy harakatga mansublikda ayblanib, 1938-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan.

Azizbek Mahkamov,
tarix fanlari boʻyicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonda).

MUSHOHADA

“DARIGʻO, SARMOYA YOʻQ...”

1883–1964-yillarda yashagan toshkentlik jadid Moʻminjon Muhammadjonov taqdir taqozosiga koʻra kechroq – oʻttiz yoshlar atrofida uylangan va buning eng katta sababini dasti qisqalik – kambagʻalchilikda deya bilgan. U yosh yigitlarning kechikib uylanishi yoki umuman uylanmay oʻtishini toʻylarga sarflanadigan ortiqcha xarajatga bogʻlagan.

Toshkentdagi turli marosimlar qancha mablagʻ talab qilishini oʻz kundaliklarida yozib borgan va 1926-yilda bu qaydlarini “Turmush urinishlari” (Bir mullabachchaning xotira daftari) nomi bilan kitob holid nashr ettirgan.

Maʼlumki, jadidlar dabbabali maʼrakalarga qarshi kurashganlar. Adib Abdulla Qodiriy bu mavzuda “Toʻylarimiz” sarlavhali satirik gʻazal yozgan. “Oʻtkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlaridan ham ortiqcha toʻy xarajatlari borasida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Masalan, Otabekning Margʻilon-dan uylanishini olaylik. Qodiriy oʻz romanida toʻy ancha bechiqim oʻtganini pisanda qilgan. “Mehrobdan chayon”da Anvarning uylanishida ham kamchiqimlik seziladi.

Moʻminjon Muhammadjonovning “Turmush urunushlari” asari “Oʻtkan kunlar”dagi beva boʻzchining xotini oʻlganidan keyin boshqa uylanmagani, “Mehrobdan chayon” romanidagi qorovulning soʻqqabosh oʻtib ketayotganini bir qadar izohlaydi.

Akademik shoir Gʻafur Gʻulom bir sheʼrida dasti qisqa oshiqlarni “devorning teshigidan yaxshi koʻrganining hovliga chiqishini poylagancha kiprigiga oʻrgimchak in qurganlar ham bor”, deya taʼriflagan.

Oshiq bor, maʼshuqa bor, darigʻo, sarmoya yoʻq...

Oiloyor BEGALIYEV

QADDRON KITOBLAR

Siz ham topib oʻqing!

Maktabda oʻqib yurgan kezlirimizda, adabiyotdan yodlashga berilgan baʼzi tumtaroq sheʼrlar boʻlardi – qayta-qayta oʻqisak ham xotiraga kirmay tixirlik qilar, yoddan aytganingda satrlari chalkashib, soʻzlari tumtaraqay qochib ketaverardi.

Nega bir sheʼrni osongina yodlayman-u boshqasi hech esda qolmaydi, deb hayron boʻlardim. Keyinchalik bildimki, azbaroyi bandni toʻldirish yoki qofiya uchun bitta qatorga majburlab yigʻilgan soʻzlar baribir birikmas, shu bois, yoddan aytganingda satrlar ayqash-uyqash boʻlib ketaverar ekan. Aksincha, bir voqea yoki mazmunni izchil ifoda etayotgan sheʼrda ortiqcha soʻz boʻlmas, bir-birini toʻldirib kelayotgan satrlar xotirada ham yaxlit bir binodiy binoyi oʻnashar ekan. Bu holning “yurakdan yozilgan asar yurakka yetib boradi”, degan izohi ham bor.

Oʻzbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning sheʼrlari – xoh u kattalarga, xoh bolalarga yozilgan

boʻlsin, bir oʻqishingiz bilan yodda qoladigan “jon”i bor asarlardir. Har biri samimiy yozilgan, shu sababli, koʻngillarga oson oʻnashadi.

1990-yillar boshida shoirming “Bezgakshamol” degan yuqqagina – nihoyatda jozibali kitobchasi bilan tanishganman. Qiziqib oʻqiyverganimdan toʻplam boshdan-oyoq toʻliq yod boʻlib ketgan. “Ayogʻing tortmogʻon yerga aylanib bormogʻon yaxshi”, “Birovdin olmogʻing maqbul, birovga bermogʻon yaxshi”, “Uchragʻay bir toʻp baqa bulbul boʻlib turgʻon zovur”, “Kelur ikki suluv, ah-ah, nozlari moʻllagʻon erdi, Biri gʻuncha edi paqqos, biri sal gullagʻon erdi”, “Jahannamgʻa oʻzi shoshsa, yoʻlin qanday toʻsay emdi?”, “Zamin hoʻkiz shoxida qaltis turodir beshak, Biron mast ul hoʻkizga igrʻitmasa bas xashak”, “Qarz olsang, soqovdin ol”, “Hatto aygʻoqchi ersang-da, arilar suhbatiga burun tiqma”, “Doʻstga sir aytib, ul bechoradin sotqin yasamagʻil” degan gʻaroyib satrlarni zavq bilan aytib yurardim. Holbuki, men bu sheʼrlarni

yodlash uchun oʻqimagandim. Bunga qadar Anvar Obidjonning kitoblari qoʻlimga tushmagan, matbuotda chiqqan yakkam-dukkam asarlari bilan tanishib, u kishini bolalar shoiri deb oʻylab yurardim. Shundan soʻng, ustoz shoirimizning hamma asarlarini qidirib oʻqiydigan boʻldim. Anvar Obidjon – nihoyatda oʻziga xos shoir. Yaqinda Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan “Tanlangan asarlar” kitobini oʻqib, shoirming faqat oʻzigagina xos boʻlgan badiiy uslubı uning ilk sheʼrlaridanoq boʻy koʻrsatganiga amin boʻlish mumkin. Kitobdan adibning turli yillarda eʼlon qilingan sheʼrlari, qissalari, doston-qissalari, ertaklar va poemalari oʻrin olgan. Yozilish sanasiga koʻra tartiblangan asarlar ijodkorning mahorati tadrijiy yuksalib borganini koʻrsatadi. Bir paytlar teleekran orqali millionlab qalbarga kirib borgan “Hayotning har lahzasi goʻzal, Umrning har dami gʻanimat”, deya naqoratlanuvchi diltortar



sheʼrlarni, “Sen kabi qomati raso Fargʻonada bittagina” singari soʻlim qoʻshiqqa aylanib ketgan samimiy misralarni, “Uchchanoq”, “Ignabarg sheʼrlar” kabi adabiy yangilik boʻlgan falsafiy mushohadalarni, bolalarga atalgan boʻlsa-da, kattalarni ham kuldiradigan va oʻylantiradigan ajabtovur asarlarni bir muqova ostida oʻqish mumkin.

Aytgancha, “Bologoye” degani nima, bilasizmi? Qiziqsangiz, buning maʼnosini ham ushbu muhtasham toʻplamdan topasiz. Xullas, Anvar Obidjonning “Tanlangan asarlar”i sizni oʻziga maftun etadi, albatta, topib oʻqing!

Ikrom ISKANDAR

SHARAFLI QISMAT

anglash hissiyoti kuchli edi. Bu hammaga ham nasib qilavermaydigan fazilat. U buni “Temir xotin” asarida yaqqol namoyon etdi, – dedi Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist Qoʻchqor Norqobil. – U shaklini topdi, Alomaxon obrazi orqali davr fojiasini yaqqol koʻrsatdi. Bu komediya emas, tragik komediya, hatto tragediya edi. Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, taniqli kinorejissor Isamat Ergashev qadrdon doʻsti bilan bogʻliq xotiralari bilan oʻrtoqlasharkan: “U bilan uzoq yillar hamkorlikda ijod qildik. Jumladan, “Yuzsiz” filmi, “Sharif va Maʼrif” komediyasi, “Tilla bola”da birga ishladik. Undan tashqari, amalga oshmay qolgan rejalarimiz ham koʻp edi. Eng birinchi ishimiz – “Temir xotin”.

Aslida, uni menga Oʻzbekiston xalq artisti Murod Rajabov tanishtirgan. Bir kuni qoʻlimga Sharof yozgan pyesani tutqazib: “Aka, shuni oʻqing, sizga yoqadi, faqat bir shartim bor – bosh rolni men oʻynayman”, degani hech esimdan chiqmaydi”, dedi. Shuningdek, xotira kechasida dramaturgning ukasi Marat Normatov qiziq bir voqeani esladi: “Bir yigʻilishda boshlovchi adashib, akamni Oʻzbekiston xalq yozuvchisi deya tanishtirgan. Holbuki, u paytda unvon haqida gap-soʻz yoʻq edi. Baribir zalda gulduros qarsak yangradi. Shunda ustoz Said Ahmad: “Qararg, uka, davlat bizga unvon berdi, sizga esa xalq allaqachon berib boʻlibdi”, degandi...”

Abbos SHOYIMOV



MARAFON

Biror xalq-u elatning farovonligi uning bozoridan ayon bo'lishi qadimiy hikmatlarda naql qilinadi. Ayni biror millatning qadriyati esa oilaviy marosimlar, xususan, to'y va ma'rakalarda zohir bo'lsa, ajab emas.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov yozganidek, bir to'y xarajatida bir boy yaponning bir kambag'al o'zbekka teng kela olmasligi chin. Shu ma'noda, donishmand olim Albert Eynshteynning ushbu so'zlari xotirga keladi: "Bolalaringizga qanday pul topishni emas, uni qanday sarflashni o'rgating". Xalqimizda "Pul topib, aql topmagan" degan ibora bor. Bu ibora cho'ntagidagi pulini "bebiliska" xarj qilgan kishiga nisbatan qo'llanadi.



Katta to'y qilib xotun olgan bechoralarning holiga yig'lamoq kerak. Uch kunlik to'yning azasi ba'zi oilalarda o'n yil, hatto bir umr surar, balki bevatan va xonavayronlikka sabab bo'lur.

Mahmudxo'ja BEHBUDIY

TO'Y IXCHAM – O'Y IXCHAM

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi "Qorasuv" hududida mana shunday yigit – kuyov mahalla faollari va nuroniyar, jamoatchilik tomonidan tartibga chaqirildi. Gap shundaki, A.G'. ismli yigit o'tgan haftada nikoh to'yi munosabati bilan uyi qolib, ko'chani turli parda va sun'iy gullar, bezakli arklar bilan yasatgan. To'y va shodiyona shukuhini ulashgani uchun kuyovto'radan, albatta, qarindosh-urug' ham, mahalla ahli ham minnatdor. Basharti, bu tadbir maromida bo'lganida, mahalla ahli minnatdorlikda davom etardi ham. Ammo hashamga o'ch va orzu-havasini jilovlay olmagan yigit yo'lning qatnov qismi yarmigacha ark yasatib, transportlari harakatiga noqulaylik



tug'dirdi, shaxsiy manfaatini odamlar manfaatidan ustun qo'ydi. Ayniqsa, "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida mahalla ahlining faolligi va uyushqoqligi samarasi o'laroq yaqinda asfaltlangan ko'chaga qoziqlar qoqilib, unga jiddiy zarar yetkazilgani mahalladoshlarining dilini ranjitdi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi O'rta Chirchiq tumani bo'limi, ichki ishlar bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi va boshqa jamoatchilik vakillari hamda mahalla faollarining da'vati, nuroniyarlarning nasihati orqali to'y bezaklari maromiga solindi, to'y egalari esa tartibga, insofga chaqirildi.

Toshkent viloyatining shahar va tumanlari, mahalla va qishloqlarida jamiyatda maromiylik madaniyatini keng targ'ib etishga qaratilgan bu kabi tadbirlar

davom etmoqda. Targ'ibot tadbirlarida to'y-hasham va ortiqcha isrofgarchilik, jumladan, oilaviy tadbirlar va boshqa marosimlarda me'yorni saqlamaslik kabi tez-tez uchrab turishi, bu kabi holatlar aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazibgina qolmay, milliy qadriyatlarga zid kayfiyatning shakllanishiga ham sabab bo'layotgani ta'kidlanmoqda. "Maromiylik marafoni" doirasidagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq olib borilayotgan bunday tadbirlar ijobiy natija berayotganini yuqoridagi holat misolida ko'rish mumkin. Biroq bu xotirjamlikka kafolat bo'la olmaydi.

Oilaviy marosimlarni tartibga solishda quyi bo'g'in rahbarlari va deputatlarning shaxsiy namuna ko'rsatayotgani, albatta, quvonarli.

– Yaqinda nabiramni to'y bazmisiz uylantirdik. Ajablanmang, nikoh to'yiga bag'ishlangan bazm tashkil etilmadi. Bu yetishmovchilik yo boshqa shu kabi biror sabab bilan emas, azbaroyi, odamlar orasida ixcham to'y bilan ham, umuman, bazmsiz ham baxtli oilaga asos solish mumkinligini amalda ko'rsatish uchun edi, – deydi "Nuroni" jamg'armasining Nurafshon shahar bo'limi rahbari Jo'ra Ahmedqulov. – Nikoh to'yi bazmi o'rninga xonadonimizda kichik marosim o'tkazildi. Kelin uzatib kelgan qudalarimiz uyimizda mehmon bo'ldi, shu yerning o'zida ixcham bazm ham tashkil etildi. Qatnashchilar yuz kishiga ham yetmadi. To'yga xarj qilinishi kerak bo'lgan, biroq tejalgan mablag' kelin-kuyovning xorij sayohati uchun ajoyib sarmoya bo'ldi. Ko'z tegmasin, nabiralaring baxtli hayot kechiryapti. Ularning baxtini ko'rib, bizning ham umrimiz uzayayotgandek, go'yo. Aytmoqchimanki, to'ylar, mayli, bo'laversin, ammo to'qlikka sho'xlik musobaqasiga, isrof va uvul maydoniga aylanib ketmasin! Bu bo'yicha bobobuvilar o'rtasida ham targ'ibot-tashviqot ishlarini jadal olib borish talab etiladi.

Darhaqiqat, jamiyatda bir kishi boshlab bersa, xayrli tashabbus quloqch yoyadi. Ko'pchilik "kuyov navkar"ni, "charlar"ni, "qiz bazmi"ni qisqartirmay yurgan bir paytda, Jo'ra ota o'zi bosh bo'lib, nikoh bazmini ham o'tkazmay qo'ya qolibdi. Bundan o'rnak olish lozim, albatta.

"Mahalla yetiligi" a'zolari bilan bo'lib o'tgan davra suhbatida Xalq deputatlari O'rta Chirchiq tumani Kengashi raisi Ra'no Jumanova to'y marosimi bilan bog'liq asosli mavzuni ko'tardi.

– To'yga artist chorlash hammamiz uchun oddiy tuyulishi mumkin, aslida esa, hozirgi to'ylardagi eng dolzarb masalalarning biri shunga borib taqaladi, – dedi Ra'no Jumanova. – Nima uchun desangiz, yillar mobaynida to'yga tayyorgarlik ko'rgan to'y egalari o'zlari istagan kunda bu marosimni o'tkazish imkoniyatidan mahrum! Ha, xuddi shunday! Unda kim

belgilaydi, deyishingiz mumkin. To'y kunini artist, ha, artist belgilab beradi. Afsuski, "birrovchi" artistlarning javobi, aniqroq aytilsa, "bo'sh kuni"ga qarab, to'y belgilanadi. Shu tariqa, qudalararo kelishilgan muddat bir necha kun yo haftaga surilishi ham mumkin.

Ra'no Jumanova davra suhbatida o'rinni fikrni o'rta qatnashladi. Unga ko'ra, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, "Nuroni" jamg'armasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va O'zbekiston musulmonlari idorasi hamkorlikda boshlagan "Maromiylik marafoni"ga endilikda Madaniyat vazirligi ham qo'shilsa, to'ychi xonandalarni tartib va insofga chaqirib, shu orqali o'zbek milliy san'atining eng sara namunalaridan iborat milliy to'y repertuarini shakllantirib bersa, nur ustiga nur bo'lardi. Axir, yoshlar qachongacha "Dilxiroq" emas, "Lezginka"ga raqs tushadi?!

– Dabdabali to'ylar haqida "ixcham" o'ylarni bayon qilgimiz keladi. Ammo to'ylar ixchamlashmas ekan, o'ylarni ham ixchamlashtirib bo'lmaydi, nazarimda, – deydi Parkent tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Marg'ubba Inoyatova. – To'y, ma'raka va oilaviy marosimlarni belgilangan cheklolvar asosida to'y oshlarini ikki tomon kelishgan holda bir kunda bitta to'yxonada o'tkazishi, shuningdek, to'ylarni ham ikki tomon bahamjihat bir kunda bitta to'yxonada tashkil etishi tavsiya etilmoqda. Bu katta miqdordagi isrofgarchilikning oldini olish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda, "Qadriyatlar qadr topgan oila" mavzusidagi targ'ibot va tushuntirish tadbirlarini ham o'tkazib kelmoqdamiz. Bu orqali jamiyatda milliy qadriyatlarga hurmat, mehroqibat va birdamlik ruhini mustahkamlash ko'zda tutilgan. "Maromiylik marafoni" davomida to'y va marosimlarda ortiqcha dabdabadan voz kechish, tejamlorlik va ma'naviy qimmatga e'tiborni oshirish uchun "To'ymisan, to'y bo'ldi!" shiori ostida namunali to'ylar tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bunday to'y egalarga "Ibratli oila" ko'krak nishonini topshirish ham ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizni kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilayotganining tub zamirida xalq farovonligini ta'minlashdek ezuq go'ya yotadi. Biroq isrofgarchilikka asoslangan sun'iy udumlar davlat siyosatiga ham, o'zbek xalqining milliy urf-odatlariga ham tamoman ziddir. "Maromiylik marafoni" doirasida tashkil etilayotgan targ'ibot tadbirlarida mana shular muhokama qilinmoqda, aholi isrofdan chekinishga da'vat etilmoqda, zarur hollarda qat'iy choralar ko'rilayotir. Zero, to'y shunchaki oilaviy marosim emas, milliy qadriyatdir.

Otabek ISROILOV

TARMOQLARDA NIMA GAP?

O'QITUVCHINI BECHORA QILIB KO'RSATMANG!

Hurmatli rejissyorlar, adiblar, dramaturglar!

Film, serial olayotganingizda, pyesa sahna-lashirayotganingizda, hikoya, she'r yoki dos-ton yozayotganingizda o'qituvchi personajini o'ta oddiy, keragidan ortiq kamsuqum shaxs, yashash sharoiti achinarli darajada bechorahol qilib ko'rsatmang, ifodalamang.



Ko'p kuzatganim, deyarli barcha kino va badiiy asarlarda o'qituvchi xalqi bir xil gavdalaniriladi: allazamonlardan beri kiyilaverib yaltirab ketgan kastyum-shim, ohori to'kilgan ko'ylakda, qo'lida ka-a-atta popka, qabariq ko'zoynakli, yag'iri chiqqan do'ppi va albatta, bo'yinda endor galstuk... Ishga ham yo piyoda, yoki g'irchillab yuradigan velosipedda qatnaydi.

To'g'ri, o'qituvchilar rostdan ham halol, mo'tadil hayot kechiruvchi, yurish-turishi, muomalasi oddiygina odamlar. Ortig'cha hoy-u havasga o'chmas. Biroq zamon o'zgardi, davlatning pedagoglarga e'tibori o'zgardi, o'qituvchilarning ongi o'zgardi. Garchi ustozlar qalbi hamon pok esa-da, ularning ham kiyinishi, imijlari o'zgardi.

Qachongacha bankirni yo tadbirkorni bashang ko'rsatib, o'qituvchini ularga zid qo'yamiz? Zamonaviy pedagog ham jaraq-jaraq o'ylik olyapti, yengil avtomobil minyapti, hashamatli restoranlarga boryapti, yangi rusumdagi telefon ishlatyapti. Oliy ta'limdagi professor-o'qituvchilarni aytmasayam bo'ladi farovonlik borasida.

Eskicha tasavvurlarni o'zgartirmasak, ota-onalar bolalariga "Ko'rib qo'y, sen ham o'qituvchi bo'lsang shunday yashaysan, biring

ikki bo'lmaydi", deb ziyolilarni qo'l uchida ko'rsataveradi.

Televideniye, ijtimoiy tarmoqlar – katta auditoriya. Unda lavhalar qanday tasvirlansa, aksar aholi shunday qabul qiladi.

Men bu bilan bir kasbni boshqasidan ustun qo'ymoqchi emasman. Lekin alaloqibat, "Dunyoda bitta kasb bor – o'qituvchilik. Qolgan barcha kasblar uning hosilasidir".

O'qituvchi bo'lib paxtaga ham chiqdik, namunaviy uylar qurilishida ham ishladik, ko'chalarni tozaladik, daraxtlarni oqladik, uyma-uy yurib aholini ro'yxatga ham oldik. Hatto, zootexnik ham bo'ldik. Tungi smenada maktabni qorovullash... Shukurki, bular ortda qoldi. Endi ijodkorlarning ham fikri o'zgaradigan vaqt keldi.

O'qituvchining jamiyatdagi nufuzini oshirishning bir uchi aynan siz – dramaturglar, rejissyorlar, yozuvchi va shoirilarga bog'liq.

Xulosa: mayli, bo'rttirmang, yoningizdan qo'shmang, lekin bugungi yaratilayotgan imkoniyatlar va ulardan unumli foydalanayotgan o'qituvchi hayotini ko'rsatsangiz, shu ham yetadi.

Erkinjon YARASHEV

Facebook

TILBILIM

Qadimgi turkiy manbalarda bu so'z "ögdäm", "ögtäm" shakllarida uchraydi. Eski turk yozuvida qoyaga bitilgan bitig'lardan birida "Ögdäm Inal" kishi oti qayd etilgan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da bu so'zni "ögtäm" shaklida "mag'rur", "g'ururlangan" ma'nolarida qo'llagan: "Beduk so'zladi so'z bu o'gtam tiling" (ma'nosi: "bu mag'rur, maqtanchoq tiling katta gapirdi").

Bu so'z (ism) nafaqat o'zbek, balki ko'pchilik qardosh turk (va mo'g'ul) tillarida ham bo'lib, "mard", "mag'rur", "kuchli", "jasur", "bag'rikeng", "saxovatli" kabi ma'nolarni bildiradi. "O'zbek tilingning izohli lug'ati"da unga: "O'ktam – 1. Bosh-qalarga o'z ta'sirini, so'zini o'tkazadigan, shijoatli, o'tkir. "Mahallaning o'ktam yigiti". 2. Himmati ulug', olijanob, saxiy", deb izoh berilgan.

Ammo uning "mard", "kuchli", "saxiy" kabi ma'nolari keyinchalik paydo bo'lgan, kelib chiqishiga ko'ra, bu so'z "aql", "fikir", ma'nosidagi qadimgi turkiy "ög" o'zagidan, deb qaraladi, "Devonu lug'atit turk"da: "ög – aql, ziyaraklik", deb izohlangan. Bu o'zak hozir ham tilimizda faol – "nasihat, yo'l-yo'riq" ma'nosidagi "o'git" ("ögut" – "ög+ut") so'zida o'zgarishsiz saqlangan, "o'rganmoq" so'zi ham shu o'zakdan, ammo keyinchalik unda tovush almashinuvi sodir bo'lgan: "öGRät-" – "o'RGat-". Umuman, "ög" o'zagi haqida uzoq to'xtalish mumkin.

Mazkur o'zakka aloqador yana "ög-", "ögmök" fe'li ham bo'lib, bu fe'l – "maqtamoq, ulug'lamoq,



alqamoq" kabi ma'nolarni bildirgan. Bu fe'l XIV asrgacha bo'lgan manbalarda ko'p uchraydi, shulardan biri – "Nahj ul-farodis"dan: "Saxiyni yad etib dayim ögerler" ("Saxiyni yod etib doim maqtalar"). Yoki "maqto'v", "madh" kabi ma'nolarda ilgari mazkur o'zakdan yasalgan "ögdü" so'zi ishlatilgan: "Rasul aleyhisselánnih tert yári ögdysi" ("Rasul aleyhissalomning to'rt yori madhi"). Qutb. "Xusrav va Shirin").

Shuningdek, qadimgi turkiyda "qo'llab-quvvatlamoq, maqtamoq, ulug'lamoq" kabi ma'nolarga ega – "ögtä-" ("ögdä-") fe'li ham bo'lgan va "o'ktam" so'zi mazkur fe'lga "–m" qo'shimchasini qo'shib yasalgan (ögdä+m – ögdäm – o'ktam) va bu so'z dastlab "maqtalgan, ulug'langan" kabi ma'nolarni bildirgan.

Abduvohid HAYIT



Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Adadi – 18 561
Shundan:
Kiril yozuvida – 6 547
Lotin yozuvida – 12 014
Media kuzatuvchilar – 80 376
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI